

## MUNDARIJA

|   |           |
|---|-----------|
| <b>KIRISH.....</b>  | <b>2</b>  |
| <b>I-BOB. MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA HUQUQIY TARG’IBOTNING O’RNINI TAHLIL ETISHNING NAZARIY ASOSLAR.....</b>                               | <b>8</b>  |
| 1.1.Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning mohiyati va uning shakllari.....   | 8         |
| 1.2.Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy targ’ibotning ahamiyati.....  | 16        |
| I- Bob uchun xulosa.....  | 25        |
| <b>II-BOB. O’ZBEKISTONDA HUQUQIY SAVODXONLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH MAQSADIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR .....</b>                                   | <b>26</b> |
| 2.1. Huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan davlat siyosatining mohiyati.....   | 26        |
| 2.2. Targ’ibot- tashviquot ishlarini tashkil etishning ta’sirchan va innovatsion uslublarini ishlab chiqish va ularni o’z vaqtida amalga oshirish.....              | 33        |
| II- Bob uchun xulosa.....   | 46        |
| <b>III- BOB. MA’NAVIY- MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA HUQUQIY TARG’IBOTNING MOHIYATINI YORITISHGA OID TAJRIBA-SINOV ISHLARI.....</b>                    | <b>47</b> |
| 3.1. O’quvchi yoshlarga ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishda huquqiy targ’ibotning o’rni haqida tushuntirishda pedagogik usullardan foydalanish..... | 47        |
| 3.2. Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari.....  | 50        |
| <b>XULOSA.....</b>  | <b>59</b> |
| <b>GLOSSARIY.....</b>   | <b>62</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....</b>  | <b>64</b> |

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliги.** Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati shu bilan birga ma'naviyatining yuksalishi ko'p jihatdan fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga bog'liq. Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlarning mohiyatini anglash, ushbu jarayonda ishtirok etish fuqarolarning huquqiy madaniyati yuqori bo'lishini taqozo etmoqda.

Jamiyatning har bir a'zosi o'z huquq va burchlarini hamda mas'uliyatini puxta bilishi, buni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamog'i lozim. Fuqarolarimizning dunyoqarashi, tafakkuri mamlakat hayotiga, yangilanishlarga mos ravishda o'zgarib borishi huquqiy madaniyat tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmonida ta'kidlanganidek, bugungi kunda mamalkatimizda "qonun ustuvorligini taminlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchilagini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash"<sup>1</sup> eng dolzarb vazifalardan biridir.

Shu ma'noda Prezidentimizning mazkur Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining 2-ustuvor yo'nalishida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, qonun ustuvorligini taminlash va sud-huquq

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.

tizimini yanada isloh qilish asosiy omillaridan biri etib belgilanganligi ayni muddaodir.

Demak, ko’rinib turibdiki, odamlarimizning huquqiy madaniyati davlat va jamiyat taraqqiyotining bugungi talablariga to’la javob beradi, deb bo’lmaydi. Bu esa hali bu borada o’z yechimini kutayotgan muammolar talaygina ekanligini, ularning yechimi esa o’z o’rnida ko’plab tadqiqotlarni taqozo etishinini bildiradi.

Shulardan kelib chiqqan holda malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini quyidagi omillar bilan belgilash mumkin:

birinchidan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 9- yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risidagi” PF-5618-son Farmonida qayd etilganidek, bugungi kunda aholida qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg’otish ishiga kompleks yondashilayapti, deb aytal olmaymiz<sup>2</sup>. Shaxsiy manfaatlar va jamiyat manfaatlari o’rtasidagi muvozanatni saqlash g’oyalarini aholi ongiga singdirish ishlari yetarli emasligi - qonun ustuvorligini taminlashga salbiy tasir etmoqda. So’nggi vaqtarda respublikamizning turli hududlarida ba’zan mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari kamsitilishiga oid holatlar haqida global axborot tarmog’ida maqolalar berilayotganligi kuzatiladi. Bu salbiy holatlarning asl sababi fuqarolarda huquqiy bilim yetishmasligiga borib taqaladi;

ikkinchidan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda yoshlar qatlami bilan olib borilayotgan huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish borasidagi ishlar ham tizimli va uzviy olib borilmayapti. Bu masala uzoq yillar davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyatni institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan. Ochig’ini aytganda, targ’ibot tadbirlarida ko’pincha samarasiz seminar, davra suhbatlari va shu kabi

---

<sup>2</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida.//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019. 06/19/5618/2452-son.

uchrashuvlarni tashkil etish bilan cheklanib qolinmoqda, targ'ibot jarayonida innovatsion usullardan yetarlicha foydalanilmayotgani ayon bo'lmoqda. Bu esa jamiyatimiz taraqqiyotiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ya'ni qonunlarning ijrosi bir xilda ta'minlanmayapti, islohotlar bo'yicha qabul qilingan hujjatlar ham o'zining yetarli samarasini bermayapti.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga va huquqiy madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, ma'naviyatga bo'lgan muhabbat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmayapti;

Uchinchidan, huquqiy madaniyat kishilarning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarni ijro etishi, hayotga tatbiq eta olish ko'nikmasi, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik, qonunlarga itoatkorlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorligini anglatadi. Jamiyat a'zolarining yuksak huquqiy ongi va huquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlaydi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning to'liq ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ hujatlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega;

To'rtinchidan, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, ma'naviyatini yuksaltirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish, bunda, ayniqsa, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik, rostgo'ylik kabi tushunchalarni hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi**. Fuqarolar, xususan, o‘sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy savodxonligini oshirish Azamat Ziyo, Z.Muqimov, H.Boboyev, Z.Xidirov, F.A.Muxitdinova, M.Xamidova, N.P.Azizov, X.R.Madrimov, J.M.Shodiyev, A.Saidov, J.Toshqulov, Z.Ilhomov, S.To‘rayev, F.Ismatullayev kabi olimlarimizning ilmiy ishlari va tadqiqotlarida o‘z aksini topganligini qayd etib o‘tish o‘rinli<sup>3</sup>.

Shuningdek, yurtimizga arablarning kirib kelishi bilan shariat huquqining mamlakatimizga yoyilishi, boshqaruvtizimi, sud-huquqtizimi, islom qonunchiligi haqida A.Saidov, M.Rajabova, A.Sh.Jo‘zjoniy, Z.Muqimov, S.A.Issakov va boshqa bir qator olimlarning ishlarida ko‘rishimiz mumkin<sup>4</sup>.

Mustaqillik yillarida ko‘plab siyosatshunos, tarixchi, huquqshunos va ma’naviyatshunos olimlar mustaqil hokimiyat tizimidan biri bo‘lmish sud hokimiyatini o‘z tadqiqot va ilmiy ishlarida, monografiyalari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarida o‘rgandilar. Jumladan, M.Baydadayev, R.Z.Jumayev, S.Jo‘rayev, D.Toksanov, N.Jo‘rayev, T.Fayzullayev, S.Zokirov, X.Odilqoriyev, Z.Islomov, F.Otaxonov, M.Turg‘unov, Sh.O.Mamadaliyev, Sh.R.Qobilov, M.Sobirova, X.Jumaniyozov kabi olimlarning ilmiy ishlari, o‘quv uslubiy qo‘llanmalarida mavzuning u yoki bu jihatlari tahlil qilingan<sup>5</sup>.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo'yicha huquqiy targ’ibot samaradorligini oshirishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari hamkorligining o'rni va ahamiyatini asoslash va tahlil etishdan iborat.

---

<sup>3</sup> Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi. -T., 2000; Muqimov. Z. O’zbekiston huquqining tarixiy manbalari. - Samarqand. Zarafshon, 1995; A. Saidov, J.Toshqulov. O’zbekiston davlati va huquqi tarixi. -T. 1995; Z. Ilhomov, F. Ismatullayev. Ilk o’rta asrlar o’zbek davlatchiligi tarixi.- T ., 2011.; Boboyev. H. O’zbek davlatchiligi tarixi. – T., 2004. Z.Ilhomon. S.T.orayev. O’rta asrlar davlatchiligi tarixi. – T., 2011.

<sup>4</sup> A.Saidov, X.Burhoniddin. Marg’inoniy – buyuk huquqshunos. – T., 1997; A.Saidov, A.SH. Jo’zjoniy. Sharq va inson huquqlari. -T., - 1998. M. Rajabova. Shariatda jinoyat va jazo. – T., 1996. Z.Muqimov. Movarounnahr- fiqh muktabi. – Samarqand. 1997; S.Ishoqov. Burhoniddin Marg’inoniy va fiqh ilmi. – T. 2000.

<sup>5</sup> Boydadayev M. O’zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimi shakllanishi va rivojlanishining huquqiy asoslari. –T. 1999. Jo’rayev. N , Fayzullayev. T. Mustaqil O’zbekiston tarixi.- T., 2009.; Zohidov S. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni sari. –T. 1999; Turg’unov M.T, Odilqoriyev H.T, Mamadaliyev Sh.O, Qobilov Sh.R. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi amalda. O‘quv qo’llanma. -T ., 2013; Sobirova M.A, Jumaniyozov X.S. Milliy g’oya: O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. -T .: TDPU , 2018.

## **Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:**

- Huquqiy targ'ibot tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish;
- Mamlakatimizda huquqiy targ'ibot samaradorligini oshirishning nazariy -huquqiy asoslarini tahlil va tadqiq etish;
- Huquqiy ta'lif huquqiy targ'ibot samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini asoslash;
- Huquqiy targ'ibot samaradorligini oshirishda siyosiy partiyalar, nodavlat- notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining o'rmini ochib berish;
- O'quvchi yoshlarda huquqiy targ'ibotga oid bilimlarni shakllantirishda interfaol usul va metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;
- Mavzuga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, tajriba-sinov ishlari tahlili asosida xulosalar tayyorlash.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti:** Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha huquqiy targ'ibot samaradorligini oshirishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari hamkorligining o'rni va ahamiyatini asoslash jarayoni ishning obekti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti:** Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha huquqiy targ'ibot samaradorligini oshirishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari hamkorligining o'rni va ahamiyatini asoslashning usul, metod va vositalari ishning predmeti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asoslari:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, Qaror, farmon va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, chet ellik va mamlakatimiz olimlarining tadqiqot mavzusiga oid qarashlari bitiruv malakaviy ishimiz uchun nazariy va metodologik asos bo'ldi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:** Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha huquqiy targ'ibot samaradorligini oshirishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari hamkorligining orni va ahamiyatini asoslash

borasida ilk bor bitiruv malakaviy ishi doirasida tadqiqod olib borilganligining ozi bitiruv malakaviy ishining yangiliginini asoslovchi omillardan hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati:** Ushbu bitiruv malakaviy ishida bayon etilgan mulohazalar va nazariy xulosalardan huquq va ma’naviyat sohasi bilan shug’ullanuvchi ustozlar huquqiy targ’ibot samaradorligini oshirishga oid ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni, ko’rik tanlovlarni tashkil etishda, murabbiy axboroti soatlarida, ma’naviyat soatlarida qo’shimcha nazariy manba sifatida foydalanishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi:** Bitiruv malakaviy ishiga kirish, uchta bob, mavzuga oid dars ishlanmasi, xulosa va tavsiyalar, glossariy va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

**I-BOB. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHDA HUQUQIY TARG'IBOTNING O'RNINI TAHLIL  
ETISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**1.1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning mohiyati va uning shakllari**

Hozirgi darvda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar umumiylar aholining taxmiman 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 24 foizini tashkil etadi. Shu sababli yoshlarning tarbiyasiga, kamolotga yetishiga huquqlarini himoya qilishga e'tiborni qaratish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"<sup>6</sup>.

Yoshlarni tarbiyalash, mamlakat kelajagini ta'minlash bu davlat buyurtmasidir. Shu sababli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuzaga kelishi, ma'naviy tarbiyaning yoshlarga ta'siri, yoshlarning jamiyat hayotidagi roli, uzlusiz ta'limni insonparvarlashtirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahamiyati, ma'naviyat, ma'rifat, mafkura tushunchalarining o'zaro bog'liqligi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va yangi texnologiyalardan foydalanish yo'llarini puxta o'rganishimiz lozim.

Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida kitobxonning e'tibori takror –takror eng dolzarb masalaga, ya'ni yosh avlod tarbiyasiga, o'g'il qizlarimizning sof va beg'ubor qalbini turli ma'naviy taxidlardan qanday asrash masalalariga qaratiladi. Shu sababli kitobda eng ko'p

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020.12.29.

ishlatilgan tushunchalarni “yoshlar”, “tarbiya”, “ma’naviyat”, “milliy g’oya” , “fazilat”, “taxdid” kabi so’z va iboralar tashkil etadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlar, rivojlanayotgan mintaqalarning boyliklarini egallahsga intilish birdaniga paydo bo’lgani yo’q.

Ma’naviyatli insoniyat o’tmishdan tegishli saboqlar chiqarishi va XXI asrda tarix varaqlariga “xijolatlik” bilan bitiladigan voqeа-hodisalarning sodir bo’lishiga yo’l qo’ymasligi kerak edi. Qashshoqlik, ekologik muammolar, zaxiralar taqchilligi, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik va terrorizm XX asrdan XXI asrga meros bo’lib o’tdi. Ustiga-ustak, ayrim kuchlarning urinishlari natijasi o’laroq, xavf-xatarlar ro’yxati yangilari hisobiga yanada kengaydi. Demografik inqiroz, demokratiya eksporti, ma’naviy qashshoqlashuv, axborot urushlari, g’arbona turmush tarzini tifishtirish kabi xavf-xatarlar shundoq ham bezovta dunyoning tashvishlarini ko’paytirdi. Odamzodning mavjud illatlarga qarshi kurashi qaysidir jihatdan afsonalarda tasvirlanadigan ko’p boshli ajdar bilan olishuvni eslatadi. Ajdarning bitta boshi tanasidan judo qilinishi zahoti, shu joydan ikki-uchta bosh o’sib chiqishi bu mahluq bilan kurashish naqadar qiyin ekanini ko’rsatadi.

Xavf-xatarlarga e’tibor bilan razm soladigan bo’lsak, mustamlakachilik siyosati, birovlarni qaram qilish siyosati yangi asrda yo’qolmaganini, balki o’zining shakl-u shamoyilini o’zgartirganini tushunib yetamiz. Darhaqiqat, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an’ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o’z ta’siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o’z manfaati yo’lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar».

Mustaqillik davlat miyyosida oliy hokimiyatga egalikni, tashqi va ichki siyosatni olib borishdagi to’la erkinlikni anglatadi. Mustaqillik muayyan davlat erkinligining birlamchi sharti va belgisidir. Bu esa mustaqillikning tom ma’noda qisman yoki cheklangan shaklda mavjud bo’la olmasligini anglatadi. Chunki, mustaqillik davlatning boshqa davlatlarga tobe bo’lmay, qaram bo’lmay yashashini, o’zga kuchlar tomonidan boshqarilmay, birovlarning irodasiga bo’ysunmay, erkin

hayot kechirishini nazarda tutadi. Muhimi, davlat mustaqilligining o'rnatalishi mamlakatlar o'rtasida tenglik qaror topishini shartlab qo'yadi hamda mutelik, o'zgalar hisobiga yashash, turli kamsitishlar, ortiqcha ta'zim-tavozega yo'l qo'ymaydi. Davlat mustaqilligi mustamlakachilikning har qanday shaklini, uning kamsituvchi tabiatini, u taqozo etadigan zo'ravonliklarni rad etadi.

Garchi butun dunyo mamlakatlari o'rtasidagi teng huquqlilik jahon hamjamiyati taraqqiyotining tabiiy va zaruriy sharti hisoblansa-da, ayrim mulohazalar va xatti-harakatlarda hamon imperiyacha fikrlash ta'sirini, davlatlar mustaqillagini yemirish istagini ilg'ash qiyin emas.

Globallashuv jarayonlarini tahlil qilgan olimlar bu jarayonlarda davlatning rolini turlicha baholaydilar. Ayrim nazariyalarda globallashuv jarayonida davlatning roli tobora pasayib borishi uqtirilsa, boshqalarida uning o'rni va ahamiyati o'zgarmaydi, deb ta'kidlanadi. Yana bir guruh olimlar esa globallashuv sharoitida davlat bilan davlatlararo tashkilotlar o'rtasida siyosiy hokimiyat qayta taqsimlanib, davlat ularga o'z suverenitetining bir qismini beradi, degan farazlarni keltirmoqda. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlар o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo'shilib qolish holatlari hamon uchrab turibdi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi ishlariga yaqindan ko'maklashish maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi (keyingi o'rnlarda Respublika kengashi deb yuritiladi) faoliyatining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi va nazorat ostida ko'plab ishlar

amalga oshirildi. Jumladan, aholi o‘rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish bo'yicha tadbirlar amalga oshirildi.

Oila, mahalla, ta’lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma’naviy muhit o‘rganildi, “mahalla — tuman — viloyat — respublika” prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasi shakllantirildi va bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etildi. “Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi asosida jamiyatda uzlusiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlari tashkil etilib, uning strategik yo‘nalishlari, ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublari ishlab chiqildi.

Tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g‘oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ‘ibot ishlari amalga oshirildi va davom etmoqda. Shu bilan birga aholining ijtimoiy-ma’naviy hayotida bunyodkorlik g‘oyalarini kuchaytirish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlashga doir ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar dasturining ishlab chiqilishi katta yutug’imiz bo’ldi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Yurtimizda uzlusiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining ishlab chiqilishi va uning tarkibiga ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlari, bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish shakllari, ma’naviy tarbiyani shakllantirishda oila, ta’lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlikni o‘rnatish mexanizmlari, ma’naviy

tarbiyani shakllantirishning homiladorlik davridan boshlanishi va tarbiyaning har bir bosqichdagi o‘ziga xos xususiyatlari, tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarining ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borishni nazarda tutuvchi uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimining kiritilishi ma’naviy sohada olib borilgan ishlarni yaqqol namoyon qildi.

Yurtboshimiz tomonidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markaziga jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitning holatini aniqlash va manzilli sog‘lomlashtirish metodikasi loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha bergen topshirig‘i asosida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

-hududlardagi ijtimoiy-ma’naviy muhit holati xonadonma-xonodon yurib aniqlandi va tizimli monitoring va tahlil qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanildi;

-tahlil natijalari “mahalla — tuman — viloyat — respublika” prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasida aks ettirildi;

-ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirildi;

-aholining mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga yo‘naltirilgan innovatsion metodlar yaratilib, ilmiy-amaliy dasturlarni amaliyotga joriy etish mexanizmi ishlab chiqildi.

Bugungi kunda nafaqat O‘zbekistonda balki, butun dunyoda yosh-u qarini o‘ziga jalgan qilayotgan o‘zining to’riga o’rab jarlik sari yetaklayotgan ijtimoiy tarmoq va axborot vositalari jamiyat ma’naviyatiga ta’sir qilayotgan muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli bu sohaga doir ishlar ham amalga oshirildi, masalan, “Madaniyat va ma’rifat” telekanali Markaz, uning hududiy bo‘lim va bo‘linmalari faoliyatini yoritish masalalari bo‘yicha Respublika kengashining bosh axborot hamkor etib belgilandi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Xalqaro press-klub va boshqa

ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan maqolalar, tok-shoular, ijtimoiy roliklar, ko'rsatuvlar, publitsistik chiqishlar va eshittirishlar tashkil qilindi.<sup>7</sup>

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora kuchayib bormoqda. Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida yurtimizda yana bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlik umummilliy harakatga aylantirildi, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligi ta'minlandi, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlar ilmiy asosda tashkil etilib, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimi joriy qilindi, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi, aholining Internet jahon

---

<sup>7</sup>Sh. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida. (O'zbekiston Reapublikasi qonun hujjatlari to'plami. PQ-4307. 3079-son, 2019.05.03).

axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish ta’minlandi, geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar muntazam o‘rganilib, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borildi hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalari rivojlantirildi.

Shu bilan birga Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markaziga (keyingi o‘rinlarda — Markaz) qo‘srimcha vazifalar yuklatildi va bu vazifalar amalga oshirildi. Jumladan, davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘nalishida mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va ishchi (ekspert) guruhlarining bu boradagi faoliyati muvofiqlashtirildi, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va ma’naviy tahdidlarning mohiyati va aholining turli qatlamlariga ta’siri o‘rganib chiqildi, yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi, ularni g‘oyaviy jihatdan qaram etishga yo‘naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o‘z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqildi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, keng ko‘lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish bo‘yicha davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlandi. Ilmiy-tadqiqot yo‘nalishida esa ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta’sirchan targ‘ibot texnologiyalari hamda usullari ishlab chiqildi, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribalar o‘rganilib, bugungi mafkuraviy jarayonlar ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilindi va baholandi, maktabgacha ta’lim, umumiyo o‘rta, o‘rta maxsus va oliv ta’lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringi olib borildi, aniqlangan muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi,

ma’naviy tarbiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar tashkil etilib, ularning natijalari amaliyatga tatbiq qilinishi muvofiqlashtirildi.

Targ‘ibot-tashviqot yo‘nalishida esa ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Sohalar va hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, aniq maqsadga yo‘naltirilgan targ‘ibot-tashviqot dasturlari ishlab chiqildi hamda amalga oshirildi. Aholi, ayniqsa, yoshlarni islom dini va falsafasiga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar amalga oshirildi. Markazning ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-ijtimoiy mavzulardagi dolzarb maqolalari, jamoatchilik vakillarining ilg‘or fikrlari, shuningdek, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to‘plash, tayyorlash va tarqatish maqsadida “oyina.uz” elektron portali tashkil etilib, qo‘llab-quvvatlandi. Portal faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun Markazga qo‘srimcha 15 ta shtat birligi ajratildi va uning tuzilmasida Raqamli targ‘ibot bo‘limi tashkil etildi.

Ta’lim tashkilotlarida ham madaniy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha tartib va intizomlar joriy etildi, jumladan, har bir umumta’lim muassasasida joriy etilgan ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimi tasis etilib, moliyalashtirish uchun 2021-yil 1-apreldan boshlab davlat budgeti mablag‘lari hisobidan 0,5 shtat birligi ajratildi hamda uning ish haqi miqdori umumta’lim muassasasi oliy ma’lumotli o‘qituvchisi uchun o‘rnatalgan bazaviy tarif stavkasi miqdorida belgilandi, davlat oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallarida, talabalar sonidan qat’i nazar, yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (direktorning birinchi o‘ribbosari) lavozimi joriy etildi.

Shu bilan birga yangi qurilishlar orqali yoki bo‘sh turgan binolarda mahalliy budget mablag‘lari hisobidan 2021 — 2023-yillarda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlarini barpo etish tashkil etildi.

Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim tizimining tegishli ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalariga bakalavriat bosqichida “Ma’naviyatshunoslik”, magistratura bosqichida “Kasbiy ma’naviyat” fanlari kiritildi. Innovatsion rivojlanish vazirligi Markaz bilan birgalikda milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishida ilmiytadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar shakllantirildi.<sup>8</sup>

## **1.2. Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy targ‘ibotning ahamiyati**

Bugun biz yashayotgan fuqarolik demokratik jamiyatda insonlarning farovon yashashlari, shaxs sifatida o’zini namoyon qilishi va davlat tomonidan belgilab qo’yilgan huquqlaridan foydalanishlari va majburiyatlarini anglashi uchun eng avvalo, har bir fuqaroda huquqiy ong rivojlangan bo’lishi lozim. Huquqiy sohada olib borilayotgan islohotlarning zamirida ham ana shu maqsadlar yotadi. Umuman olganda olib borilayotgan tub islohotlarimizning eng muhim sharti ham jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish, qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlash hisoblanadi. Shu ma’noda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish borasida keng ishlar olib borilmoqda. “2017 -yil 7- fevraldagagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Prezident farmoni, 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to'g'risida”gi qonun, 2018- yil 13-apreldagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida”gi Prezident farmoni, 2019- yil 9- yanvardag “ Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi Prezident farmoni va boshqa me’yoriy -

---

<sup>8</sup> Sh. Mirziyoyev. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida. (O’zbekiston Respublikasi ma’lumotlar milliy bazasi, PQ-5040-son, 26.03.2021).

huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi” fikrimizning dalilidir. Bu ijtimoiy kategoriyanı jamiyatda o’z o’rniga ega bo’lishiga erishish, uni insonlar ongi va tafakkurida muqim joy olishini ta’minalash uchun eng avvalo, uni ilmiy tahlil qilish va ilmiy- falsafiy ildizlari bilan tanishib chiqishimiz kerak.

Huquqiy ong tushunchasi ma’no jihatidan keng qamrovli, tasniflash va tahlil qilish murakkab bo’lgan tushuncha hisoblanadi. Ijtimoiy ongning bir shakli sifatida falsafiy fanlarda o’rganiladigan bu tushuncha huquqiy fanlar, sotsiologiya va psixologiyaning ham muhim ob’ektlaridan biri hisoblanadi. Bu tushunchani tub ma’nolarini o’rganish va tahlil qilish uchun eng avvalo, ong tushunchasiga to’xtalish lozim. Ijtimoiy fanlar tarixida inson ongi to’g’risida g’oyalar asrlar davomida turli olimlarning ta’limotlarida va ilgari surilgan “ongning asosiy maqsadi”<sup>9</sup> haqidagi, yoki bo’lmasa, G.Leybnisning “o’z-o’zini anglash” kontseptsiyasi,<sup>10</sup> E. Dyurkgeym “ijtimoiy (individualdan tashqari) ong” ning mavjudligi to’g’risidagi qarashlari<sup>11</sup>, G.Gegelning “antropogenez va ong” haqidagi qarashlari”<sup>12</sup> ushbu masalani kengroq ilmiy tahlil qilishga turtki bo’lgan tadqiqotlar hisoblanadi. Ong hususida tadqiqotlarni o’rganib quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Ong - bu voqelikni inson psixik olamida aks ettirishning eng yuqori shakli. Ong - bu doimiy holatda faoliyat bilan bog’liq bo’lgan psixik jarayon. Ong o’z navbatida yagona bo’linmas ma’naviy shakllanishdir hamdir. Ong - bu ham tafakkur uslubi va ob’ektiv borliqda mavjud bo’lgan haqiqat bilan aloqalar tizimi hamdir. Ongning hususiyatlari ichida xulq-atvorni tartibga solishning borligi va ijtimoiy ongda bu bir alohida shaklga ya’ni huquqiy ong shakliga kelganligi ko’plab tadqiqotlarning natijalaridan bizga ma’lum. Jumladan, mamlakatimiz olimlarining bir qator tadqiqotlari ham shu mavzuga qaratilgandir.

---

<sup>9</sup>. Локк Дж. Сочинения в 3-х т. Т.1. Опыт о человеческом разумении. (Философское наследие. Т.93).-М.: Мысль, 1985.- 621с.-С.3-76

<sup>10</sup> Философский словарь / Под ред. И.Т. Фролова. - 4-е изд.-М.: Политиздат, 1981. - 445 с.

<sup>11</sup> Дюркгейм Э.О разделении общественного труда / Пер. с фр. А.Б. Гофмана, примечания В.В. Сапова. — М.: Канон, 1996. — 432 с.

<sup>12</sup> Hegel.G.W.F.Phänomenologie des Geistes. (1807). Berlin-52-p

Masalan, Z, Islomovning fikricha, “Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyatga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g'oyalari, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta'riflash mumkin”.<sup>13</sup> Huquqiy ongni tadqiq qilish ishi bo'yicha XX asrda rus olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan va ularda xilma-xil qarashlarni uchratamiz. Masalan, Y.Dmitriyevning fikricha: “Huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari yig'indisidir”<sup>14</sup>. Jamiyatning rivojlanishi, N.M.Korkunovning fikricha “huquqiy ong jamiyatning ideallari bilan bog'liq bo'lib, jamiyatning ideallarni, shu jumladan huquqiy ideallarni yaratish qobiliyati qanchalik rivojlangan bo'lsa, u shunchalik ilg'or bo'ladi. Qonun inson hayotining eng yuqori qadriyatlaridan biri sifatida tushunila boshlanadi”<sup>15</sup> amalga oshiriladi.

Boshqa ijtimoiy ong shakllari kabi huquqiy ong ham o'zining strukturasi va o'z tizimiga ega. Bu muammoni o'rganish ijtimoiy fanlar ichida yuridik psixologiya uchun xosroq mavzudir. Huquqiy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, huquqiy ong - bu amaldagi qonun va u qanday bo'lishi kerakligi to'g'risida odamlarning yoki shaxsning qarashlari, g'oyalari, baholari tizimidir. Yuridik ma'noda shuni ta'kidlash lozimki, inson o'zini huquq va erkinliklarning to'la huquqli tashuvchisi yoki buzilgan shaxs sifatida bilishi, ba'zi bir huquq va erkinliklarda cheklanganligi to'g'risida xabardorligi huquqiy ongning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Huquqiy ong huquqiy faoliyatga, ya'ni insonning o'z huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan harakatlariga ta'sir qiladi. Huquqiy ong fuqarolik jamiyatining huquqiy hayotining asoslaridan biri desak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababiki, ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida huquqiy ongning shakllanishi va rivojlanishiga

<sup>13</sup> . Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi.-T.: Adolat, 2007.-537-b.

<sup>14</sup> Ю.А.Дмитриев.Правосознание и правовая культураю / Теория государства и права.Под.ред.Пиголкина. - Москва: Юрайт - Издат, 2006. С- 547

<sup>15</sup> Кареев Н. И. Основы русской социологии. СПб. 1996. С. 123-142.

ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy omillar ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy ong - bu huquq haqidagi bilim, amaldagi qonunni baholash, qonunchilikdagi kerakli o'zgarishlar haqida fikr va g'oyalalar tizimidir. Huquqiy ong, shuningdek, davlatning barcha huquqiy tizimiga ta'sir o'tkazish vositasi sifatida ishlaydi. Jamiyatda tug'ilgan inson ijtimoiylashuv jarayonida barcha o'zidan oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan qadriyatlarni o'zlashtiradi, shuning uchun jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonida huquqiy ong ob'ektivlashadi. Huquqiy ong va biron bir jamiyatda shakllangan huquqiy tizim o'zaro ta'sinda bo'ladi. Bir tomonidan, huquqiy ong qonunlarga bog'liq holda rivoj topib borsa, boshqa tomonidan, ushbu jamiyatda shakllangan huquqiy tizim huquqiy ongga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Huquqiy ongning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u individual tajriba doirasidan tashqariga chiqmaydi. Shuning uchun u o'z rivojlanishida aniqlangan ob'ektiv ijtimoiy qonuniyatlarni yanada kengroq umumlashtirish darajasiga intiladi, ya'ni nazariy bo'ladi. Nazariy huquqiy ongda uchta qatlam mavjud: yurislarning kasbiy huquqiy ongi, huquqiy nazariyaning o'zi va huquqiy mafkura. Nazariy huquqiy ong amaldagi va rivojlanayotgan huquqiy tizimni ma'naviy ravishda ko'paytiradigan ilmiy tushunchalar tizimiga o'xshaydi.

Huquqiy ongning har xil turlari mavjud, ularni bir necha asoslarga ko'ra tasniflash mumkin: tuzilishi (huquqiy g'oyalari va huquqiy tuyg'ulari), darjasи (ilmiy, kasbiy, kundalik), sub'ektlari (ommaviy, guruh, individual) va boshqalar bo'yicha tasniflash mumkin. ma'lum bir jamiyatda mavjud bo'lgan va uning huquqiy haqiqatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan g'oyalilar, qarashlar, fikrlar, nazariyalar. Shunday qilib, huquqiy ongni tizim sifatida o'rghanishda uning quyidagi elementlari borligiga etibor qaratish lozim:

- huquq;
- ustuvor prinsiplar ustuvorligi;
- huquqni muhofaza qilish organlari mansabдор shaxslari;
- huquqiy munosabat;

- shaxsning huquqiy savodxonligi.

O'zining eng umumiy ma'nosida huquqiy ong - bu odamlarning qonunga bo'lgan munosabatidir. Huquqiy ong - bu axloqiy me'yorlar bilan bir qatorda jamiyat a'zolarining xatti-harakatlarini tartibga soluvchi qadriyatlarni baholash tizimi. Huquqiy ongning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bu odamlarning tabiiy huquq qadriyatlari, inson huquqlari va erkinliklari va shu bilan birga mavjud pozitiv huquq haqidagi tasavvurlari, uning jamiyat ehtiyojlariga, huquqiy va umumbashariy inson ideallari va qadriyatlarga qanday mos kelishini anglashdir. Shunday qilib huquqiy ongning mazmuni ko'p qirrali bo'lib, shaxsning qonunga va huquqiy hodisalarga, jamiyatdagi o'zaro munosabatlar qoidalari va me'yorlariga va ularning adolat tamoyillariga muvofiqligini belgilaydigan va aks ettiradigan ko'plab qarashlar, g'oyalar to'plami bo'lganligi bilan tavsiflanadi.

Huquqiy madaniyat- jamiyatning qonunchilik darjasи, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darjasи, fuqarolarning, mansabdar shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo`lishi.

Huquqiy madaniyat shartli ravishda jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatiga ajratiladi. Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ongning huquqiy qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirish va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turidir. Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismi bo'lib, bu faoliyat huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi va natijada shaxs jamiyatning doimiy huquqiy boyishi uchun asos bo'ladi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirilgani sir emas. Shu bilan

birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qancha muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masalaga huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetaricha ta'minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbazarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobjiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtaqidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo‘yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari belgilab olindi va amaliyotga tadbiq etildi. Jumladan, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimi shakllantirilib, fuqarolar ongida “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir” degan g’oya mustahkamlandi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratildi va maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamiga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqr singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalari keng targ‘ib qilindi.

Shu bilan birga aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlar xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilinib, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg‘ulari shakllantirildi. Davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksaltirib borildi, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabati shakllantirildi. Shu qatorda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish borasidagi o‘zaro hamkorligi mustahkamlandi, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanish tizimli asosda yo‘lga qo‘yildi. Ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta’minlashdagi roli oshirilib, huquqiy

targ‘ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, vebtexnologiyalarni qo‘llash kengaytirildi.

Islohatlar davomida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ko’plab qo‘srimcha vazifalarni amalga oshirdi. Jumladan, ijrochilar va aholini qonunchilikning mazmun-mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida xabardor qilish sifati tubdan oshirilib, ushbu faoliyatni tashkil qilishda prinsipial yangi yondashuvlar ishlab chiqildi va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Davlat organlari va tashkilotlar tomonidan huquqiy targ‘ibot va ma’rifat bo‘yicha olib borilgan ishlarni o‘rganilib, shuningdek, ularning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlandi. Aholining turli qatlamlari, shu jumladan, tadbirkorlar va yoshlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda, huquqiy targ‘ibotni amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi hamda qo‘srimcha huquqiy ma’lumotlar (yuridik lug‘at, huquqiy adabiyotlar elektron maydonchasi, qonun hujjatlari loyihalari muhokamasi bo‘yicha onlayn forum va boshqalar) yetkazish tizimini o‘z ichiga oladigan O‘zbekiston Respublikasining milliy huquqiy internet portalini yaratildi. Aholiga bepul maslahat berish portalini o‘z ichiga olgan Advice.uz huquqiy axborot tizimini yaratildi.

Umumta’lim maktablari va akademik litseylarda huquqiy bilimlarga doir o‘quv mashg‘ulotlari ko‘lami yanada kengaytirildi. Aholining kundalik hayotida ko‘p uchraydigan huquqiy masalalar yuzasidan savol-javob tarzidagi qo‘llanmalar tayyorlandi va xonadonlarga bepul tarqatildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shtan davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ko‘rsatgan xizmatlari uchun topshiriladigan “Huquqiy targ‘ibot ishlari a’lochisi” ko‘krak nishoni ta’sis etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta’lim muassasalarida “Bola huquqlari” va

majburiyatlari” mavzusidagi mashg‘ulotlarni malakali mutaxassislarini jalg qilgan holda, ko‘rgazmali tarzda tizimli joriy etdi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning huquqiy bilimlari uzlucksiz va tizimli oshirib borilishini ta’minlash mexanizmini joriy etib, o‘quvchi va talabalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqdi. 2019 yil 1 martga qadar yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlandi.<sup>16</sup>

---

<sup>16</sup> Sh. Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g’risida. (O‘zbekiston qonun hujjatlari milliy bazasi. PQ-5618. 09.01.2019.)

## **Birinchi bob uchun xulosa**

Bugungi kunda yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlargacha sodiq, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, dunyoqarashi keng, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol avlod etib tarbiyalashga qaratilgan uzoq muddatli, keng ko'lamli, ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiya dasturlarini ishlab chiqishimiz zarur. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi" asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanishi, bu borada kuch va mablag'ni sira ayamasligimiz zarur. Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlar qanday qilib, nimaning hisobiga jahonning eng rivojlangan davlatlari qatoriga kirdi? Vaholanki, bu davlatlarning tabiiy qazilma boyliklari deyarli yo'q. Barcha xom-ashyoni xorijdan sotib oladi. Demak, avvalo, yoshlar qalbida ulug' Vatanimizga, milliy g'oyamiz, ma'naviyatimiz, milliy qadriyat va boy merosimiz, ona tilimiz, davlat ramzlarimizga nisbatan buyuk muhabbatni shakllantirishimiz lozim. Toki, vatanimizning ertangi kelajagi bo'lган har bir yosh yigit-qiz bu ulug' tushunchalarni mustaqillikni asraganday asray bilsin! Yoshlar buyuk qadriyatlarning himoyachisiga aylanishi kerak!

Bugungi kunda farzandlar tarbiyasi, yoshlar kamoloti yo'lida juda ko'p ishlar amalga oshirilyapti. Lekin, natija va samara hali qoniqarli emas. Tahlillarga ko'ra, 60 foizdan ziyod ota-onalar farzandlariga yetarli darajada to'g'ri tarbiya berishni bilmaydi. Ba'zi maktabgacha ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablarida esa tarbiya masalasiga e'tibor hamon past darajada. Ma'lumki, inson ma'naviyati o'zgarib turadi. Shunday ekan, ma'naviyat ishi biz uchun har kuni, har soatda, kerak bo'lsa, har nafasda shug'ullanishimiz lozim bo'lgan hayotiy muhim masalaga aylanishi kerak. Bu sohada kichkina, arzimagan ishdek tuyulgan holat ham ertaga katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ma'naviyat sohasida biror bir ishni qilib bo'ldim, deb xotirjamlikka berilish yaramaydi. Mana shuni hammamiz yaxshi anglab olishimiz kerak.

**II-BOB. O'ZBEKISTONDA HUQUQIY SAVODXONLIK VA HUQUQIY  
MADANIYATNI YUKSALTIRISH MAQSADIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR**

**2.1. Huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan davlat siyosatining mohiyati**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlardan maqsad huquqiy demokratik davlat qurishdan iborat. Buning uchun “Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy onggi va madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi”.<sup>17</sup> Chunki, huquqiy onggi shakllangan fuqaro davlat va jamiyatga daxldorlik xissini, qonunlarga qat'iy amal qilish lozimlaigini, o'zining va o'zgalarning huquq, burchlarini anglaydi va ularni hurmat qiladi.

“Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbazarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning muhim talabidir”.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab yosh avlodning barkamolligi, mustaqil fikrli va mas'uliyatli bo'lishi hamda milliy istiqlolni qadrlash, milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jismonan va ma'nан sog'lom bo'lishi uchun bir qator tizimli ishlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, ularning haq-huquqlari, qonuniy manfaatlarining himoyasini ta'minlash maqsadida huquqiy asoslar ham yaratildi.

Yoshlar qatlami deganda, dunyoning turli mamlakatlarida turli yoshdagi fuqarolar tushuniladi. Masalan, AQSh va Yaponiyada 13–14 yoshdan 29-30 yoshgacha bo'lgan shaxslar yoshlar hisoblansa, Bolgariyada 15 yoshdan 29 yoshgacha, Rossiyada 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar yoshlar toifasiga kiradi. Germaniyada “kichik yoshdagi yoshlar” 14-18 yosh hamda “katta yoshdagi yoshlar” 18-27 yoshga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasida esa 14 yoshga to'lgan

---

<sup>17</sup> “Huquqiy yetuklik -barkamollikka eltadi”. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. T.: Adolat. 2011. B-78.

va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar toifasini tashkil etishi O’zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonunining 3-moddasida belgilab qo’yilgan. Shu o’rinda ta’kidlash lozimki, 2016-yilning 14-sentabrida qabul qilingan ushbu qonun yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo’nalishlarini belgilab berdi (5-modda). Bu yo’nalishlar ichida yoshlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy ongi va madaniyati darajasini yuksaltirish kabilar ham mavjud. Yoshlarning haq-huquqlari ta’minlanishi uchun nafaqat davlat organlarining kafolati, balki yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati darajasi ham katta ahamiyatga ega. Yuridik fanlari nomzodi, dotsent N. Saburov fikricha, “huquqiy ong – bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo’lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq-tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo’lgan g’oyalar, his-tuyg’ular, tasavvurlar yig’indisidir”<sup>18</sup> Huquqiy madaniyat uchun huquqiy ong zaruriy element ekanligini hisobga olgan holda shuni e’tirof etish kerakki, huquqiy ong bo’lishi uchun avvalo huquqiy savodxonlik juda zarurdir.

Huquqiy savodxonlik shaxs – jamiyat –davlat munosabatlariga muhim ta’sir ko’rsatadi, hayotda mehnat faoliyatida yoki boshqa bir sohada yuzaga keladigan muammolarniadolatli hal qilish imkonini beradi<sup>19</sup>. Yuridik adabiyotlarda huquqiy savodxonlik tushunchasiga yakdil ta’rif berilmagan bo’lsa-da, ulardan quyidagicha tushuncha hosil qilish mumkin: huquqiy savodxonlik – bu yuridik matnlardagi atamalarni tushunish, ulardan umumiy xulosalar chiqarish va bu bilimlarni amaliyotda qo’llay olish qobilayatidir. Xorijiy yuridik adabiyotlar ham shunga yaqin mazmunni ifodalaydi, ya’ni shaxsning o’z huquq va majburiyatlarini tanishi, qaysi holatlar yuridik nizo ekanligini bilishi va ularga qonuniy yechim topa olishi, huquqiy axborotni qayerdan topishni, yuridik yordamni qayerdan va qanday qilib olishni,

---

<sup>18</sup> Saburov N, Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi / O’quv qo’llanma. – Toshkent: TDYI, 2011. 74-bet

<sup>19</sup> Amirov Z. “Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida” // Jamiyat va boshqaru –2015, 27-bet.

qonunchilik tizimida qaysi choralar borligini va protsessual tartibni bilishi huquqiy savodxonlik belgilari hisoblanadi.

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish yo'lida mustaqillik davrida qator tadrijiy islohotlar amalga oshirildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Bular sirasiga “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi hamda “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rghanishni tashkil etish to'g'risida”gi Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarning huquqiy ta'limini takomillashtirish kompleks dasturi to'g'risida”gi Qarori kabilarni kiritish mumkin. Bu qonun hujjatlarining ijrosi sifatida qator amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan, Adliya vazirligi huzurida 2009-yilda tashkil etilgan yosh huquqshunoslardan iborat “Huquqiy targ'ibot guruhi” faoliyati e'tirofga loyiq. Ma'lumot o'rnida keltirish lozimki, shu paytgacha bu targ'ibot guruhi respublikamizning 70 dan ortiq tumanlariga borib, 62 mingdan ortiq yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazdi, ularning huquqiy savodxonligini oshirishga katta hissa qo'shdi. Shu bilan birga, har yili o'tkazib kelinayotgan “Siz qonunni bilasizmi?”, “Huquq bilimdonlari” kabi ko'rik tanlovlari, fan olimpiadalari ham yoshlarning huquqiy savodxonlikni oshirishga bo'lgan qiziqishlariga sabab bo'lmoqda. Yangi qabul qilinayotgan qonunlarning yoshlar hayotiga ta'siri kattadir. Ularning bu qonunlar haqida axborot olishlari, undagi normalarga tushuntirishlar talab qilish huquqi ham qonunan mustahkamlangan.

Bu borada olib borilayotgan islohotlarning yanada samarali bo'lishi ko'p jihatdan chuqur o'yanganligi va tizimliligiga bog'liqdir. Shuni e'tiborga olgan holda biz yoshlar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish masalasi bo'yicha bir qancha takliflarni bildirmoqchimiz.

Avvalo, shunga e'tibor qaratish kerakki, yetarli huquqiy ta'lim-tarbiyagina huquqiy savodxonlikka olib boradi. Shu boisdan, pedagogika oliygohlarida

“huquqshunoslik pedagogikasi” fakultetlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo’lardi. O’z navbatida esa, umumiy o’rta ta’lim va oliy ta’lim muassasalarida “Huquqshunoslik” fani dars soatlarini optimal darajada ko’paytirish ham lozim. “Huquqshunoslik” faniga ixtisoslashtirilgan sinflarning bo’lishi ham juda muhimdir. Huquqiy ta’lim-tarbiyani maktabgacha ta’lim muassasasidan boshlash samarali ish bo’ladi, degan fikrni olg’a surishimiz zarur. Zero, bu yoshdan boshlab bolalarga konstitutsiya, qonun, fuqarolik, huquq, majburiyat kabi tushunchalarni singdirish kerak. Huquqiy ta’limning bunday izchilligi shunisi bilan ahamiyatliki, bunda doimiy auditoriya mavjud bo’lib, huquqiy savodxonlikka erishishning tadrijiyligi ta’minlanadi. Shu qatorda, yoshlarning huquqiy ta’lim-tarbiyasini rivojlantirishning hududiy dasturlarini yaratish davri keldi, deb hisoblaymiz. Viloyat va tumanlar miqyosidagi, o’ziga xos dasturlarning bo’lishi yoshtar orasida huquqiy savodxonlik ko’laming oshishiga olib keladi, degan fikrdamiz. Masalan, “Yosh huquqshunos” nomli tuman hokimi mukofoti, “Konstitutsiya bilimdonlari” nomli viloyat hokimi kubogi kabi yangicha tadbirlar yoshtar orasida huquqiy bilimlarga qiziqishning yanada oshishiga olib kelishi mumkin.

Keyingi taklifimiz shundan iboratki, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga “davlat – ota-on – maktab – huquqni muhofaza qiluvchi organlar” tizimini joriy qilish lozim. Bunda davlat joylarda shart-sharoit yaratib bersa, o’quv muassalari tadbirlarni tashkillashtiradi va ota-onalar bolalarni jalb qilishadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari esa tizimli tarzda yoshlarni o’z huquqlarini himoya qilishda kerak bo’ladigan huquqiy bilimlar bilan tanishtirib boradilar. Bu tadbirlar suhbat, munozara, taqdimotlar, filmlar namoyish qilish kabi ko’rinishlarda o’tkazilishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yoshlardagi yuqori huquqiy savodxonlik demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu qatorda, bugungi islohotlarning mohiyatini tushunishda, ularni amalga oshirishda yoshlarning yanada faol ishtirokini ta’minlaydi. Bu darajaga esa tizimli va doimiy huquqiy tarbiya orqali erishish mumkin. O’z huquqlarini yaxshi bilmaslik, tushunmaslik kishini o’ziga qonun tomonidan berilgan imkoniyat va erkinliklardan

lozim darajada foydalana olmasligiga olib kelishi bilan birga, haq-huquqlari boshqalar tomonidan buzilganda ularni himoya qilish va tiklash imkonini yo‘qqa chiqaradi. Qonun talabini tushunmaslik oqibatida o‘z shartnomaviy va qonun bilan yuklatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik kishini umri davomida ko‘p bora moddiy, intizomiy, ma’muriy va hatto jinoiy javobgarlikka tortilishiga, o‘zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ta’lim tizimini shakllantirish, ta’lim sifatini oshirish va barcha sohalarda sifatli ta’limga bo‘lgan talabni qondirish – bugungi kunda har qachongidan ham muhim vazifalardandir. Mamlakatimizda ayni shu yo‘nalishga bo‘lgan e’tibor ham izchil oshmoqda.

Inson huquqlari sohasidagi ta’lim – ta’limning turlaridan biri. Bu sohadagi sifatli ta’lim insonning huquqiy bilim va tajribasini shakllantirishga xizmat qilib, jamiyatda zo‘ravonlik va nizolarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, joriy yil 7- fevralda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingani ulkan voqeа bo‘ldi. Qarorda mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi ta’limni yanada takomillashtirishga oid dolzarb vazifalarni samarali va o‘z vaqtida amalga oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi. Ana shu muhim vazifalarning har biri inson huquqlari madaniyatini shakllantirish, yoshlarni tenglik, inson huquqlariga amal qilish va kamsitmaslik ruhida tarbiyalash hamda inklyuziv, tinch va osoyishta jamiyatni yaratishga imkon beruvchi ta’lim berishga qaratilgan. Shu maqsadda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturi 5 bobdan iborat bo‘ldi.

Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturining asosiy maqsadi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyasi qoidalari va Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta’lim dasturining to‘rtinchi bosqichini amalga oshirish, shuningdek, aholi barcha qatlamlarining inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi milliy va xalqaro standartlar to‘g‘risida xabardorligini, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada kuchaytirishdir.

Bugungi kunda aksariyat yoshlar huquq va erkinliklarini bilmaganlari sabab o‘z yo‘llarini topishda, mukammal bilim egasi bo‘lishda intilishlari ortga surilmoqda. Ushbu Dastur esa ularning huquqiy bilimlarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Albatta, yoshlarning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xabardorligini oshirish, bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish nihoyatda ulkan ahamiyatga ega. Ayni chog‘da, Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturi ayni yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalarini ham qamrab olgan. Shu ma’noda Milliy ta’lim dasturi ijrosi bo‘yicha tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”da ko‘plab amaliy tadbirlar ko‘zda tutilgani diqqatni tortadi. Xususan, “Inson huquqlari haftaligi” doirasidagi vazifalar – inson huquqlari mavzusiga oid darsliklar tayyorlash, o‘quvchi va talabalar uchun innovatsion tanlovlар, viktorinalar, yozgi maktablar tashkil etish, ijtimoiy tadqiqotlar o‘tkazish juda muhim. Bularning barchasi, shubhasiz, har bir yurtdoshimizning inson huquqlari ta’limi yo‘nalishida sifatli bilim olishida qo‘l kelsa, ikkinchi tomonidan, jamiyatimizda bevosita huquqiy savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturiga nisbatan jamoatchiligidan qiziqishi ortib bormoqda.

Albatta, yoshlarning huquqiy bilimini rivojlantirish uchun, avvalo, pedagog kadrlarning salohiyati, bilimi va tajribasi yangi davr talablari darajasida shakllangan bo‘lishi kerak. Dasturda bu masalaga ham urg‘u berilgan. Xususan:

pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida inson huquqlari bo‘yicha o‘quv kurslarini joriy qilish;

huquqshunos-pedagoglar tayyorlash ta’lim yo‘nalishini tashkil etish;

«Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq» magistratura mutaxassisligini joriy etish;

inson huquqlari ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’limni takomillashtirish;

inson huquqlarining dolzarb masalalari bo‘yicha amaliy, fundamental va innovatsion ilmiy loyihibar tanlovlарini o‘tkazish;

inson huquqlarining dolzarb masalalari bo‘yicha xorijiy oliv ta’lim va ilmiy tashkilotlarning bakalavriat, magistratura va doktoranturasida mutaxassislarni o‘qitish hamda malakasini oshirish tizimini joriy etish masalalariga jiddiy e’tibor berilgan.

Dasturning yana bir ahamiyatli jihat shundaki, unda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining inson huquqlari sohasida xabardorligini oshirishga oid muhim vazifalar belgilangan. Bu o‘rinda, xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkazish, ayollar va bola huquqlari bo‘yicha o‘quv kurslari joriy qilish, migrantlar huquqlari bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlari xodimlari uchun o‘quv kurslari tashkil qilish masalalari haqida so‘z yuritilmoqda.

Shubhasiz, ushbu vazifalar ijobatiga qaratilayotgan e’tibor inson huquqlari sohasidagi sifatli ta’lim bilan jamiyatni to‘la qamrab olish yo‘lidagi asosiy qadamlardan hisoblanadi. Chunki, barcha tizim-u sohalarda huquqiy bilim va savodxonlikning oshirilishi mavjud muammolarning oldini olish, kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish, turli zo‘ravonliklarning kelib chiqmasligi uchun mustahkam asos bo‘ladi.

Dasturda yana bir ahamiyatli jihat mavjud. Bu ham bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar, badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya berish tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan e’tibordir. Bu bejizga emas. Chunki, ayni vaqtda ba’zi ommaviy axborot vositalari xodimlarining huquqiy savodxonligi va bilim darajasini juda ham yaxshi deb, baholay olmaymiz. Shuning uchun Dasturda axborot xizmatlari xodimlari va jurnalistlar uchun inson huquqlari bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil qilish borasida ham aniq vazifalar belgilangan.

Albatta, tizimda bu kabi vazifalarning joriy etilishi ommaviy axborot vositalari xodimlarining huquqiy bilim, savodxonligi, tajribasini shakllantiradi. Muhimi esa, axborot to‘g‘ri va aniq yetkazilishiga yanada keng yo‘l ochadi. Binobarin, Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturining qabul qilinishidan asosiy maqsad –

aholining, ayniqsa, yoshlarning inson huquqlari sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirish, jumladan, bu borada axborot tarqatishdir.

Bu maqsad, o‘z navbatida:

- inson huquqlari sohasida sifatli ta’lim berish faoliyatini yanada takomillashtirish;
- jamiyatda inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish;
- inson huquqlari sohasidagi ta’limning asosiy tamoyillari va uslublarini o‘zlashtirishga ko‘maklashish;
- aholining turli guruhlari tomonidan inson huquqlari, erkinliklari, gender tenglik mazmun-mohiyatini tushunishga erishish;
- davlat organlari xodimlarining inson huquqlarini amalda qo‘llash borasidagi bilim va ko‘nikmalari to‘laqonli shakllanishiga e’tibor qaratish;
- inson huquqlari sohasida ilmiy-tadqiqot va o‘quv jarayonini takomillashtirish kabi bir-biridan muhim vazifalarni o‘zida jamlaydi.

Shunday qilib, inson huquqlari sohasida sifatli ta’lim berish aholi, ayniqsa, yoshlаримизнинг бу борадаги замонавиј билимларини шакллантариш, оларни, ямиятимизда хукуқий маданиятни оштешнинг устувор омили исобланади. О‘з navbatida, Prezidentimiz Qarori bilan tasdiqlangan Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturi ana shu ezgu amallarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

## **2.2. Targ’ibot- tashviqot ishlarini tashkil etishning ta’sirchan va innovatsion uslublarini ishlab chiqish va ularni o‘z vaqtida amalga oshirish**

O`zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlarning yangi bosqichiga qadam qo`yildi. 2017-2021- yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi natijasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning asosiy vazifalari rivojlanan boshladi. Bu o`rinda targ`ibot-tashviqot ishlari asosida aholining ma`naviy-ma`rifiy qarashlari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror

toptirish muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo`yildi. Milliy ma`naviy - ma`rifiy qadriyatlarning jamiyat va xalq hayotida tutgan o`rni katta bo`lib, bu o`rinda targ`ibot-tashviqot ishlarining muhim ahamiyatga ega ekanligi yaqqol ko`rinmoqda.

Targ`ibot- (lotincha tarqatiladigan) siyosiy, ilmiy, falsafiy, badiiy va boshqa qarashlar hamda g`oyalarni ijtimoiy ongda joriy etish, ommaviy faoliyatini faollashtirish maqsadida ularni yoyish, tarqatishga aytildi. Targ`ibot-tashviqot bir-biri bilan yaqindan bog`liq bo`lib, muayyan guruhlar manfaatini ifodalaydi. Targ`ibot qilish g`oyalar, qarashlar, nazariyalarni og`zaki, matbuot, radio, televide niye, internet yoki boshqa vositalar yordamida yoyish demakdir. Tashviqot (agitatsiya) tushunchasi ham lotincha so`z bo`lib, keng xalq ommasiga siyosiy ta`sir ko`rsatishni bildiradi.

Tashviqot deganda keng xalq ommasiga siyosiy ta`sir ko`rsatish orqali safarbar etish maqsadida aholi o`rtasida og`zaki yoki yozma ravishda olib boriladigan ommaviy, siyosiy ish, faoliyat tushuniladi. Qisqasi, tashviqot deganda, biz ommani hayajonga solish uni o`z orqamizdan ergashtirish uchun ularning hissiyotiga ta`sir etish san`atini tushunamiz.

Keng ma`noda olganda, targ`ibot tushunchasi faoliyatning alohida turini anglatadiki, ma`lum qarashlar, tasavvurlar va emotsiyal holatlarni vujudga keltirib, ular orqali kishilarning xulq- atvoriga ta`sir etish maqsadida bilimlar, g`oyalar, badiiy boyliklar va boshqa xil axborotlarni yetkazish hisoblanadi. Fan, mafkura, san`atdan farqli o`laroq, targ`ibotning asosiy vazifasi yangi ma`naviy boyliklarni yaratishdan iborat bo`lmasdan, balki ularni yoyish, joriy etishdan iboratdir. Fan sohasida, olamni badiiy o`zgartirishda kashf qilingan jamiki narsalar targ`ibotchi-tashviqotchi tomonidan idrok qilinadi, targ`ibot yordamida konkret shaxs bilan bog`liq yangi ma`lumotlar tarqatiladi. Targ`ibotning maqsadi faqat ma`naviy-ma`rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-tarbiyaviy jarayon bilan bog`liq ma`lumotlarni shunchaki kishilar ongiga yetkazishdan iborat bo`lmasdan, balki ularni konkret vaziyatni, auditoriya xususiyatlarini, bu ish kechayotgan sharoitni hisobga olgan holda ijodiy tarzda qayta ishlashni ham nazarda tutadi. Biroq, targ`ibotchining ishi bilan tashviqotchining vazifasi bir-biridan farq qiladi.

Targ`ibotchining vazifasi ommaga ko`proq g`oyalarni tarqatish va ommaviylashtirishdan iborat bo`lib, shu qadar ko`p g`oyalar berishi kerakki, bu g`oyalar nisbatan unchalik ko`p bo`lmagan kishilar tomonidan o`zlashtirilib olinadi. Tashviqotchining zimmasidagi vazifa esa, ma`naviy-ma'rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-tarbiyaviy jarayon bilan bog`liq masalalar haqida gapirganda tinglovchilarning har biriga alohida ta`sit etish. Tinglovchilarning hammasiga, har biriga ma`lum bo`lgan eng muhum misollarni tanlab olishga, bitta g`oyani singdirish uchun bor kuchini sarflashdan va masaladagi qarama-qarshilikni to`la tushuntirish ishini tashviqot qilishdan iboratdir.

Bolani yoshligidan badiiy tafakkur qilishga o'rgatish, iste'dodini yuzaga chiqarish uning intellektual rivojida muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи “Ma’naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qaroriga muvofiq o‘rta umumta’lim maktablarida ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimi joriy etildi.

Ushbu lavozim ta’lim muassasalarida madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, iqtidorli o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini aniqlash, uni ro‘yobga chiqarishni ko‘zda tutadi. Bugun “Yosh ijodkorlar” to‘garagiga qatnashayotgan hamma bolalar ham keljakda shoir-yozuvchilikka da’vo qilmas, lekin ular bu muhitda ma’rifatli-ma’naviyatli insonlar bo‘lib ulg‘ayishi aniq.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2020-yil 28-dekabrdagi “Umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarida Ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimini joriy etish to‘g‘risida”gi qo‘shma qaroriga asosan umumta’lim maktablarida ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi 0,5 shtat birligi joriy etildi. Bugungi kunda respublika bo‘yicha o‘n ming nafardan ortiq targ‘ibotchilar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ulardan qariyb yarmi yozuvchi-shoirlar, jurnalistlar va madaniyat hodimlari hissasiga to‘g‘ri kelsa, qolgan yarmi ona tili va adabiyot hamda boshqa fan o‘qituvchilaridan iborat.

Qo'shma qarorga ko'ra, ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchining asosiy vazifalari belgilab berilgan. Ammo, ushbu yo'naliш yangi soha bo'lганligi sababli, uning faoliyat doirasini yanada aniqlashtirish maqsadida seminar-treninglar o'tkazish va kerakli qo'llanma chop etish zarurati bor edi. O'tkan yilning 22-23-noyabr kunlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida targ'ibotchilar ishtirokida bo'lib o'tgan amaliy seminar-trening ko'п masalalarga yechim bera oldi. Ikki kun mobaynida targ'ibotchilarga o'z sohasining yetuk mutaxassislari, jumladan, xalqaro sertifikatga ega trenerlar, yozuvchi-shoirlar tomonidan mahorat darslari o'tkazildi, taqdimotlar uyushtirildi. Mashg'ulotlarda targ'ibotchilar ham amaliyot davomida orttirgan tajribalari va taklif-mulohazalarini hamkasblari bilan almashdilar. Tayyorlangan trenerlar 13-28-dekabr kunlari oralig'ida barcha hududlarda targ'ibotchilar uchun seminar-treninglar tashkil etishdi. Endilikda trenerlar tomonidan qishki ta'til davrida tuman (shahar) larda targ'ibotchilarni jadval asosida, o'qitish ishlari olib borilmoqda. Xalq ta'limi vazirligi, Jurnalistlar ijodiy uyushmasi va Yozuvchilar uyushmasining takliflari hamda joylardagi targ'ibotchilar bildirgan fikrlar bir yerga to'planib, uslubiy qo'llanma loyihasi ham tayyorlandi. U joriy yilda chop etilib, barcha targ'ibotchilarga berildi. Ayni paytda har bir hududda ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilarning o'z telegramm guruhlari yoki kanallari (masalan: "Samarqand targ'ibotchilar", "Andijon targ'ibotchilar" va hokazo) ochildi. Ushbu guruhlar jami 9175 nafar targ'ibotchini o'z ichiga olgan. Targ'ibotchilar o'rtasida har yili "Yilning eng namunali ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi" tanlovini tashkil etish ham rejalashtirilmoqda.

Targ'ibotchilarning maktablarga kirib borishi, avvalo, u yerdagi ijodiy muhitni jonlantirdi. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishslashning aniq mexanizmlari yaratildi. Mamlakatimizdagi barcha maktablarda "Yosh ijodkorlar" to'garaklari tashkil etilib, o'quvchilarning ijod namunalari mahalliy va markaziy ommaviy axborot vositalari orqali yoritilmoqda. Bu ham yoshlarga katta ma'naviy rag'bat bo'lmoqda. Yaqinda Respublika Kasaba uyushmalari tomonidan uyushtirilgan "Mening Prezidentim"

ijodiy ishlar tanlovida aynan ana shu to‘garak vakillaridan 5 nafari respublika bosqichida ishtirok etdi va o‘rirlarni qo‘lga kiritdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dastlabki qadamlar ancha samarali bo‘ldi, deyishga to‘la asosimiz bor. Bu xayrli tashabbus ertangi kunda yanada salmoqli natijalar berishiga shubha yo‘q.

Ma’naviyat hamisha, hamma zamonlarda, avvalo, inson kamolotiga, odamlar qalbida ezgu fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qilib kelgan. Eng muhim, jamiyat hayotini yangi ezgu g’oyalar bilan boyitib, xalqning birdamligi va hamjihatligiga asoslangan yangi ma’naviy-ruhiy makonni yaratishda ma’naviyat katta kuch bo‘la olgan. Aynan ana shu makon odamlar qalbi va ongida millatparvarlik, vatanparvarlik ruhini mustahkamlab, jamiyatni yuksak taraqqiyot yo‘liga boshlaydigan yangi uyg'onish to'lqinlarini yuzaga keltirgan. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, “O’zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishar ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ma’naviyat shu'lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’uliyat tuyg'usi bilan yashashga davat etib turishi zarur”.

Jamiyatdagi ma’naviy yangilanishlar har bir insonni qalban-ruhan ezgu maqsadlar yo'lida birlashtirishga xizmat qiladi. Bu yo'lda milliy g’oya, milliy ma’naviyat har bir xalqning amaliy dasturiga aylanadi. Birlashgan jamiyat yuksak metin qoyadek sobit turadi, birlasholmagan jamiyat qumday sochilib ketadi. Har bir mamlakatni, avvalo, birlashgan fidoyilar yuksaltiradi! O’tayotgan kunlar hayotimizni har tomonlama tahlil qilishni taqoza etmoqda. Shukronalar bo'lsinki, bizning sarhisob qiladigan, xulosa chiqaradigan, ibrat oladigan qadriyatlarimiz yetarli.

Bugungi kunda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ulug'vor maqsad kun tartibiga qo'yildi. Taraqqiyotning yangi davri talablari asosida mamlakatimizda amalga oshiriladigan eng muhim vazifalar belgilab olindi. Mamlakatimizni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar O’zbekistonning yangi Renessansiga – yangi

Uyg'onish davriga mustahkam poydevor bo'lishi lozim. Ana shu ma'noda bundan bir yil muqaddam, aynan 19- yanvar kuni O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining ilk yig'ilishi mamlakatimiz taraqqiyotida yangi burilish davrini boshlab bergenligini alohida ta'kidlamoq kerak. Unda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini mustahkalash, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish, sohada ilmiy yondashuvni keng joriy etish, ilg'or tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq choralar belgilandi. Mafkuraviy ishlar borasida davr talablarini o'zida mujassam etgan yo'nalishlar asosida qabul qilingan 2021- yil 26- martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", yana shu kuni "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" qarorlari, 2021-yil 3- iyunda Vazirlar Mahkamasining "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar inistituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi qarori O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, muvofiqlashtirish borasida yangi yo'nalishni yaratishga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 26- martdag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori asosida barcha vazirlik va idoralarda Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari tuzildi. Mazkur kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish bo'yicha ikki tomonlama "Yo'l xarita"lari ishlab chiqilib, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yangi tizimi amal qila boshladi. "Yo'l xarita"larida belgilab qo'yilgan tadbirlarni bugungi kun talablari darajasida amalga oshirish maqsadida ilk bor mamlakatimizdagi 109 ta vazirlik, idora va tashkilotlar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan, 630 dan ziyod korxona va tashkilot Markazning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyat bo'limlari bilan, 5175 dan ziyod korxona va tashkilotlar tuman bo'linmalari bilan ikki tomonlama hamkorlikning yo'lga qo'yilishi ma'naviy-ma'rifiy sohada yangi tizim yaratish borasidagi ilk qadamlar bo'ldi.

Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini baholash indikatorlari (KPI) ishlab chiqildi. Mazkur indikatorlar asosida hududlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar holatini muntazam baholab borish yo'lga qo'yilmoqda. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohada yangi tizim yaratish, joylarda targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligini oshirishga ko'maklashish bo'yicha 30 nafar olim, ijodkor va mutaxassislardan iborat Markaz qoshida Respublika ekspertlar guruhi tashkil etildi. O'rganish natijalariga ko'ra, ma'naviy-ma'rifiy sohaga mas'ul xodimlarning malakasini oshirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslari tashkil etish, soha vakillarining metodik ta'minotini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalangan holda viloyat "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zolarini ma'naviy-ma'rifiy targ'iboti bo'yicha faolligini oshirish, targ'ibot tadbirlari va materiallarni ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritish yanada faollashtirildi. Korxona, tashkilot, muassasa va boshqa tuzilmalarda ma'naviyat masalalariga jamoatchilik asosida biriktirilgan mas'ullarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning malakasini oshirish ishlari yo'lga qo'yildi.

Hech kimga sir emaski, hozirgi globallashuv davrida dunyo maydonida hamma sohalarda keskin kurash va raqobat tobora ayovsiz tus olmoqda. Ayrim davlatlar, siyosiy markazlar tomonidan boshqa mamlakatlarni o'z ta'sir doirasiga olish, ozodlik ruhini sindirish, mustaqilligini tizginlash, ayniqsa, yoshlarning ongu tafakkurini egallah orqali taraqqiyot va barqarorlik, milliy birlik va hamjihatlik ildizlariga bolta uruvchi manqurtlarga aylantirmoqda. Bu yo'lida havoyi yorliqlar yopishtirilgan yolg'on va puch da'volar asosida turli usul va vositalarni qo'llashga, juda katta kuch, mablag' va imkoniyatlar safarbar etilyapti. Mana shunday murakkab sharoitda milliy o'zligiga ega bo'limgan, ma'naviy hamjihatlikka erishmagan mamlakat moddiy va ma'naviy boyliklarini, eng yomoni, mustaqilligini boy berib qo'yishi hech gap emas. Bunga o'tmishdan ham, bugungi kunimizdan ham istagancha misollar keltirish mumkin. Ana shunday sharoitda targ'ibotning tezkor, zamonaviy usullaridan foydalanmasdan maqsadga erishish juda mushkul. Shu ma'noda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qoshida "Oyina.uz" elektron portalni tashkil etilib,

Raqamli targ'ibot bo'limi faoliyati yo'lga qo'yildi va ular jadal faoliyat olib bormoqda.

Davlatimiz rahbari "...targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish tartibini yaratish va uni amaliyotga qo'llash mexanizmini takomillashtirish" <sup>20</sup> vazifasini belgilab berdi. Albatta, maqsadga erishish uchun hududiy bo'limlar zimmasiga yangi mas'uliyat va mazmun yuklanishi aniq. Ularning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida Markazning hududiy bo'lim va bo'linmalariga jami 303 ta (shundan hududiy bo'limlarga 28 ta, tuman-shahar bo'linmalariga 275 ta) qo'shimcha shtat birligi ajratilib, mazkur shtat birliklari tegishli mutaxassislar bilan to'ldirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 3- iyundagi "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Qarori bilan Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. "Tafakkur", "Ma'naviy hayot" jurnallari hamda "Ma'naviyat" nashriyoti Markaz tasarrufiga o'tkazilib, ular faoliyatini rivojlantirish choralari ko'rildi. O'tgan vaqt davomida Qurilish vazirligi tomonidan "Ma'naviyat va ma'rifat maskani"ning namunaviy loyihasi ishlab chiqilib, 2021- yil uchun hududlar kesimida 48 ta tuman-shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini foydalanishga topshirish bo'yicha tashkiliy-qurilish ishlari olib borildi. Bugungi kunda 27 ta tuman-shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat masakanlari foydalanishga topshirildi.

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni namunali yo'lga qo'yish bo'yicha an'anaviy tarzda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan "Eng namunali vazirlik va va idora" hamda "Eng namunali tuman va shahar" tanlovlari o'tkazildi. Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari tavsiyasi asosida 14 ta tuman-shahar hamda 20 ta vazirlik va idoralar o'z arizalari asosida ishtirok etdi. Joriy yilning iyun-avgust oylarida tanlov

---

<sup>20</sup> Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. T.: 2021. (283- bet)

ishtirokchilarining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi faoliyati o'rganilib, g'olib va sovrindorlar aniqlandi. Tanlov g'oliblarini taqdirlash uchun 3 dona "Damas" avtomobili hamda 101 million so'mlik kitoblar to'plami xarid qilindi. Tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi 2021- yil 15- dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi katta majlislar zalida o'tkazildi. Tanlovda Maxsus komissiyaning o'rganish natijalariga ko'ra Qoraqalpog'iston Respubliksi ellikqal'a va Farg'ona viloyati Buvayda tumanlari 1-o'rinni egalladi. Vazirlik va idoralar o'rtasida esa Mudofaa vazirligi 1-o'ringa munosib ko'rildi. Tanlov g'oliblarining taqdirlanishi barcha vazirlik va idoralar, tuman va shaharlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Maktabgacha ta'lismi, xalq ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lismi sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, bu borada boshqa tashkilot va idoralar bilan hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha yagona tizim ishlab chiqildi. 2021- yil 1-apreldan boshlab barcha oliy ta'lismi muassasalari va ularning filiallarida Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor lavozimi negizida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimi joriy etildi. Respublikadagi barcha umumta'lismaktablarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari faoliyatini o'quv yili yakuniga ko'ra kengash muhokamasiga kiritish tartibi yo'lga qo'yildi. Xususan, 2020–2021 o'quv yili yakuni bo'yicha 7565 nafar direktor o'rinbosarining faoliyati ko'rib chiqilib, shundan 520 nafari yaxshi, 6911 nafari qoniqarli, 144 nafari esa qoniqarsiz deb topilib, ular faoliyatini kuchaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasining "Umumiylig o'rta ta'lismi muassasalarida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimini joriy etish to'g'risida"gi Qo'shma qarori qabul qilindi. Hududiy tanlov komissiyalari xulosasiga ko'ra, 10 008 ta umumta'lismaktablariga ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi tayinlandi. Ular uchun namunaviy dastur ishlab chiqildi. Shuningdek, ta'lismi muassasalaridagi tarbiyasi og'ir o'quvchilar hamda ularning ota-onalari bilan el-yurt hurmatiga

sazovor faxriy avlod vakillari ishtirokida “Avlodlar uchrashuvi” loyihasi, “Bir mahallaga bir ziyoli ma'naviy homiy” hamda “Bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy” tamoyillari asosida professor-o'qituvchilar, ijodkor ziyolilar, ijtimoiy faol nuroniylarni jalg qilgan holda “mahallabay” ishlash tizimi yaratildi.

Albatta, ertangi kunimiz vorislarini har tomonlama yetuk shaxslar etib tarbiyalashda tarix eng katta mакtabdir. Shonli tariximizni bilish, ajdodolarimiz bilan faxrlanish farzandlarimizda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytiradi. Bu yo'nalishda ham ko'plab tadbirlar tashkil qilindi. Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashida berilgan topshiriqlar asosida hamkor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 685 yilligiga bag'ishlab “Amir Temur – dunyo olimlari va adiblari nigohida” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi o'tkazildi. Unda Frantsiya, Germaniya, Rossiya, Turkiya, Misr, Ummon sultonligi, Eron, Pokiston, Ozarboyjon kabi dunyoning 14 ta mamlakatidan Amir Temur va Temuriylar davri ilm-fani, madaniyati, tarixi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan 17 nafar mehmon hamda 60 dan ziyod mahalliy olimlar qatnashdi. Hozirda “Jaloliddin Manguberdi izidan” ilmiy ekspeditsiyasi tashkil etildi. “Jaloliddin Manguberdi tarixining yangi sahifalarini o'rganish” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyani o'tkazish bo'yicha tashkiliy choralar ko'rilmoxda. Konferentsiyada ishtirok etish istagini bildirgan 15 dan ziyod xorijiy mamlakatlardan 20 ga yaqin olim va mutaxassislar bilan muloqot olib borilmoqda. Milliy qadriyatlarimizni targ'ib qilish, ularni mazmunan boyitib, zamonaviy imdjni yuksaltirish sohasidagi ishlar yurtimizdag'i ma'naviy muhitning jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Respublika ekspertlar guruhi tomonidan hududlarda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashida belgilangan vazifalar hamda 2021- yilda sohaga oid normativ huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etishga ko'maklashish maqsadida hududlarda seminar-treninglar hamda mahorat darslari tashkil qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda 52 ta seminar-trening tashkil etildi. 15 ta tumanda hududdagi tegishli soha bo'yicha hokim o'rindbosarlari, rektorlar, maktab direktorlari, professor-o'qituvchilar va ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy

targ'ibot ishlarini tashkil etish bo'yicha "Mahorat darsi" bo'lib o'tdi. Markaz va uning hududiy bo'limlari tomonidan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda nodavlat telekanallar bilan hamkorlikda 170 dan ziyod ko'rsatuv va intervylular tayyorlanib, efirga uzatildi.

Albatta, ko'rsatilayotgan e'tibor natijasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar jonlanganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Davlat tili, Davlat bayrog'i qabul qilinganining 30 yilligi va Davlat madhiyasi to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan kunlarni ilk bor ommaviy bayram sifatida munosib nishonlash bo'yicha o'tkazilgan tadbirlar xalqimiz, xususan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy ishlar qanchalar katta ahamiyatga egaligini ko'rsatdi. Bu bayramni nafaqat mamlakatimizda, xorijiy davlatlardagi elchixonalarimiz, O'zbekistondan tashqarida ta'lim olayotgan, mehnat qilayotgan fuqarolarimiz, o'zga yurtlardagi vatandoshlarimiz tomonidan ham munosib va jo'shqin ruhda nishonlanganligi bunday tadbirlarni xalqimizni milliy yuksalish g'oyasi atrofida jipslashtirishdagi o'rnini yana bir bora namoyon etdi. To'g'risi, bu bayram jamiyatmizdagи muhitni ma'lum bir ma'noda o'zgartirdi. Odamlarimiz bayroq, madhiya va boshqa davlat ramzlari hayotimizda milliy g'urur va iftixor, tuyg'ularini jo'sh urdiruvchi qudratli vosita ekanligini qalban his qilishdi. Ochig'i men ham bundan g'ururlandim.

Shu bilan birga bizga xalqimizning vatanparvarlik ruhini yanada ko'tarish va barqarorligini ta'minlash, ayniqsa, yoshlarni milliy yuksalish g'oyasi ruhida tarbiyalash maqsadiga qaratilgan uzluksizlik, muntazamlik asosiga qurilgan alohida, mustahkam tizim kerak.

Bugungi hayotning o'zi bizdan yangicha fikrlashni, yangicha ishlashni talab qilmoqda. Afsuski, ko'pincha biz ma'naviyat ishi deganda odamlarni to'plab ma'ruza qilishni tushunamiz. Aslida-chi? Hayotimizning biror bir jabhasi, biror bir oni yo'qliki, u ma'naviyatsiz amalga oshiriladigan bo'lsin. "Alovida ta'kidlab ko'rsatmoqchimanki, – deb yozadi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Agar kimki ma'naviyat masalasi, bu – faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, katta xato qiladi. Bularning hammasi

davlatimiz va jamiyatimizning, barcha rahbarlarimiz, bizning ishongan tog'imiriz bo'lgan ilg'or ziyolilarimiz, barcha-barchamizning eng asosiy va muhim vazifamizdir”<sup>21</sup>. Endi faqat hisobot uchun majlis o'tkazish, auditoriyaning yosh xususiyatlari, xabardorlik darajasini, ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olmagan holda, hammaga bir xil yondashish, tayyorgarlik ko'rmasdan zerikarli ommaviy ma'ruzalar qilish davri o'tdi. Tadbir o'tkazaverib, odamlarni majlislardan bezdirib ham qo'ydik. Uning qanday samara berayotgani bilan qiziqmadik. Davr o'zgardi, xalqimiz, yoshlarimiz bugun yangicha fikrlayapti. Endi ma'naviy tadbirda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlari mazmun-mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot ishlarini izchil amalga oshirish bo'yicha yangi zamонавиy targ'ibot texnologiyalariga o'tishimiz kerak. Odamlarga dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyati haqida ham har tomonlama chuqur ma'lumot va tushunchalar berib borish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes kabi tahdidlarga qarshi birgalikda kurashishning samarali mexanizmlarini, innovatsion usullarini ishlab chiqishimiz lozim. Jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi ichki illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz kerak.

Bu ishlarni joylarda tashkil qilish va muvofiqlashtirib borishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, barcha bo'g'indagi hokimlar – hududlardagi Ma'naviyat va ma'rifat kengashlarining raislaridan juda katta mas'uliyat talab etiladi. Shuning uchun, avvalo, hududiy kengashlar faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqib, ishni to'g'ri yo'lga qo'yib olishimiz zarur. Afsuski, aksariyat hokimlar zimmasidagi bunday o'ta mas'uliyatli vazifani yetarli darajada his qilishmayapti. Ularning ko'pchiligi o'zлари rahbarlik qilayotgan hududda yuzaga kelgan ma'naviy muhitdan

---

<sup>21</sup> Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. T.: 2021. (280-bet).

yeterli darajada xabardor emas. Bu boradagi muammolarni chuqur o'rganmagan va ularni o'z vaqtida bartaraf etish choralarini ko'rмаган. Qachonki, vaziyat izdan chiqib, qandaydir ko'ngilsiz voqeа yuz bersagina, ular harakatga tushib qolishadi. Lekin bundan kimga foyda? Har bir rahbar ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ziyoli-olimlar, fidoyi vatandoshlarimiz, jamoatchilik bilan hamkorlikda yo'lga qo'ygan bo'lsa, o'sha joyda jinoyatchilik, turli ekstremistik va terroristik oqimlarga adashib qo'shilib qolish holatlari, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish va oilaviy ajrim kabi salbiy holatlar kamaya boradi. Shuning uchun Respublika, viloyat va tuman Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari majlisini har yarim yilda bir marta o'tkazishni qat'iy belgilab qo'yildi. Shu yo'l bilan hokimlarning hududdagi ma'naviy-ma'rifiy muhitni o'rganib, mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish borasidagi mas'uliyatini oshirish ko'zda tutilgan edi. Biroq, afsuski, bir qator viloyat, tumanlar hokimlari haligacha buni tushunib yetgani yo'q. Albatta, mas'uliyat bilan harakat qilmog'imiz nafaqat xalq uchun balki, o'zimiz uchun ham katta foydadir.

## **Ikkinchi bob uchun xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, albatta, har bir jamiyat ota-onada va farzanddangina tashkil bo'lmaydi. Balki, ota-onada va farzandlardan tashkil etilgan oila har bir jamiyatning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Ana shu oilalardan tashkil topgan jamiyat umumiy bir katta jamoaga aylanadi. Albatta, oila a'zolari ruhiy-ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol bo'lgan jamiyatgina o'zining barkamolligiga, sog'ligiga, qudratliligiga ishonishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun alohida oilalardagi tashvish, urinishlar butun bir avlodning ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol va sog'lom bo'lib yetishishi uchun kifoya qilmaydi. Balki bu narsada hamma jipslashgan holatda hamkorlik qilishi, ya'ni mo'min-musulmonlar yashayotgan jamiyatdagi har bir shaxs, har bir kishi sog'lom avlodni tarbiyalab, g'amxo'rlik qilish yo'lida bir oila a'zolaridek harakat qilishlari kerak. Jamiyatdagi bolalar tarbiyasiga oid muassasalarda ham bu narsaga katta e'tibor bermoq lozim. Mazkur muassasalar xoh bolalar bog'chasi bo'lsin, xoh boshqa muassasalar – jamiyat ularga o'zining sog'lom avlodini tarbiya qilib yetishtirib beradigan muhim vosita deb qaramog'i lozim. Shuning uchun bu vositalarga alohida e'tibor bilan qarab, ularni farzandlarni kelajakda moddiy va ma'naviy jahatdan sog'lom qilib tarbiyalay oladigan muassasalarga aylantirish zarur bo'ladi.

Ijtimoiy hayotni boshqarish juda murakkab, lekin zaruratdir. Davlat boshqaruvi, tabiatan siyosiy boshqaruv demakdir. Bunda u turli vositalardan foydalanadi, jumladan ma'naviy sohalardan foydalanish shunga kiradi. Siyosatda esa adolatli bo'lish xalq yutig'idir. Adolatparvarlikni qaror topishi qabul qilinayotgan qonunlarda, olib boriladigan to'g'ri siyosatda o'z aksini topadi. Shu sababli, siyosatning, adolatning kuchi yuksak ma'naviyatda desak, xato qilmagan bo'lamiz. Yuksak ma'naviyatli kishi o'z bilimi bilan barcha jarayonni qamrab oladi. Qonun-qoida, madaniyat, urf-odat, qadriyatlardan yuksak ma'naviyatli kishigina o'z o'rnida foydalanadi.

### **III- BOB. MA’NAVIY- MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA HUQUQIY TARG’IBOTNING MOHIYATINI YORITISHGA OID TAJRIBA-SINOV ISHLARI**

**3.1. O’quvchi yoshlarga ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishda huquqiy targ’ibotning o’rni haqida tushuntirishda pedagogik usullardan foydalanish**

Pedagogik ta’sir ko’rsatish - tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustaqil fikr yuritish ko’nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma’lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta’sir ko’rsatish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini takomillashtirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida tarbiyalash, ijtimoiy ong va xulq-atvorni xalqimizning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo’naltirilgan faoliyat jarayoni hisoblanadi.

Pedagogik ta’sir ko’rsatish asosida tarbiyayalanuvchining ongi shakllanadi, ma’naviy boyligi va his-tuyg‘ulari rivojlanadi, unda ijtimoiy hayot uchun zarur bo’lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo’ladi. Pedagogik ta’sir ko’rsatish bilan jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hos bo’ladi. Bunga erishish uchun o’quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta’sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, o‘qituvchining ta’lim va tarbiyaviy maqsadlarga erishishi qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o‘qituvchi rahbarlik qiladi. U o’quvchilar faoliyatini begilaydi, ularning pedagogik jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Pedagogik ta’sir ko’rsatishning asosiy usullari:

-ishontirish, talab, istiqbol, rag’batlantirish, jazolash va jamoatchilik fikridir.

O’zaro hamkorlikda ta’sir ko’rsatishning natijasi ishontirishdir. Ishontirish haqiqiy va soxta turlarga bo’linadi.

Ishonch 3 tarkibiy qismdan iborat: 1. Bilim; 2. Hissiyot; 3. Xulq-atvor. U tushunish - kechinma - qabul qilish orqali amalga oshadi.

Ishontirish shakllari quyidagilar: ma'ruza, bahs, munozara, suhbat, hikoya qilish, dalillash, ko'rsatish (namoyish qilish), shaxsiy namuna.

Pedagogik talab - ta'lim-tarbiya jarayonida ko'p qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, u tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi shaxsiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli bo'lgan talab bilan jamoani tashkil etish metodi sifatidagi yagona pedagogik talablarni farqlay bilish lozim. Agar yagona pedagogik talablar bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag'batlantirish mazmunini, jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan bolalarning harakatlari birligiga erishish yo'llarini ta'minlasa, talab esa xulq-atvor va faoliyat normalarini, bolalarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir.

Istiqlol - ta'sir ko'rsatishning juda ta'sirchan usuli bo'lib, u bolalarning xatti-harakatlarini o'zlarining oldiga maroqli, qiziqarli maqsadlar qo'yish yo'li bilan ta'minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi. Bu usul maktab o'quvchilarida shaxsning eng muhum fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni shakllantirishga yordam beradi.

Rag'batlantirish va jazolash - tarbiyaning eng an'anaviy usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning noto'g'ri xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi, bunda ularning huquq, burchlarini kengaytirish yoki cheklash, ularga axloqiy ta'sir ko'rsatish yo'lidan foydalaniladi. Rag'batlantirish va jazolash metodi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi sababli uni qo'llashda juda ehtiyyot bo'lish lozim.

Jamoatchilik fikri - ta'sir ko'rsatishning qudratli usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag'batlantirib borishni ta'minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to'liq amalga oshiradi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan samarali foydalanishning zarur sharti pedagogikaning tarbiyalanuvchilarga bo'lgan munosabatlarining chinakkam insonparvarligidir.

Ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan ekan, targ`ibotchining his-tuyg`usi, nutqi va ishontira olish san`ati bunda muhim ahamiyatga ega. U pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida darslarda yangi mavzuni tushuntirishda, o'quv-tarbiyaviy soatlarda, turli uchrashuvlar va ijodiy suhbatlarda munozaralar shaklida qo'llaniladi. Tarbiyaviy tadbirda ishontirish usuli jamoa bilan hamda alohida shaxs bilan individual suhbatlar o'tkazish, siyosiy mavzulardagi targ`ibotda keng olib boriladi. Ishontirish usuli yordamida fuqarolarning dunyoqarashi shakllantiriladi. Bu ayniqla fuqarolar ongini begona mafkuraviy g'oyalardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Ishontirish asosida fuqarolarga ideal va mustaqil fikrlar qayta quriladi. Ularni ba'zi psixik ta'sirlar tufayli sodir bo`ladigan tushkunlik holatidan asraydi, ularda erkinlikni hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stiradi, o'ziga va kelajagiga bo'lgan ishonchni uyg'otadi, o'z-o'zini tarbiyalashda, mustahkam irodani shakllantirishda yordam beradi.

Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi:

- o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;
- munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiyligi va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatishi;
- munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarishi;
- munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi kerak.

O'qituvchi tarbiyachi sifatida tarbiyalanuvchi o'quvchilarni o'zi uchun hamisha tarbiya obyekti deb hisoblashi kerak. Biroq tarbiyalanuvchi o'qituvchi-tarbiyachi bilan erkin va ongli munosabatda bo'lishga erishsagina, tarbiyaviy munosabatlar samarali xarakterga ega bo'ladi. Tarbiyaviy faoliyatning kommunikativ munosabatlar jarayonida o'ziga xos qator qoidalari ham mavjud bo'lib, targ'ibotchi o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ushbu qoidalarni mukammal bilishi kerak.<sup>22</sup>

---

<sup>22</sup> O.R.Topildiyev. Z.U.Haydarov.Madaniyat muassasalarida targ'ibot-tashviqot ishlari metodikasi. O'quv uslubiy qo'llanma. N.: 2021. Bet-236-241.

Hozirgi paytda tez-tez qo'llanilayotgan inter faol usullardan, ya'ni klaster, sinkveyn, aqliy hujum, ajurli arra, munozara, o'z o'rningni top, kichik guruhlarda ishslash, menuy, deputlar, tanqidiy fikrlash va boshqalardan foydalanish dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

### **3.2. Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarning natijalari.**

**Dars mavzusi: Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda huquqiy targ'ibotning o'rni.**

#### **Ta'lim berish texnologiyasining modeli**

| <b>Mashg'ulot vaqtি- 45 minut</b>  | <b>O'quvchilar soni: 25 – 35 gacha</b>  |
|--|---|
| <i>Nazariy mashg'ulot rejasi</i>   | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va ularni amalga oshirish.</li> <li>2. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda huquqiy targ'ibotning ahamiyati</li> </ol>  |
| <i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> O'quvchilarga ma'naviy-ma'rifiy ishlarda huquqiy targ'ibotning o'ziga xos xususiyatlarini falsafiy tahlil etish va uning jamiyatda tutgan o'rnini anglatish.   |   |
| <i>pedagogik vazifalar:</i>  | <i>O'quv faoliyati natijalari:</i>  |
| <ul style="list-style-type: none"> <li>• O'quvchilarga O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahamiyati haqida tushuncha berish.</li> <li>• Huquqiy targ'ibot haqida ma'lumat berish.</li> <li>• O'zbekistonda huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyat bo'yicha olib</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• O'quvchilar O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahamiyati haqida bilimga ega bo'lishadi.</li> <li>• O'quvchilar ma'naviyat sohasi bilan huquq sohasining munosabati haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.</li> <li>• O'zbekistonda olib borilayotgan huquqiy</li> </ul> |

|   |  |
|---|--|
| borilayotgan siyosatning mohiyatini tushuntirish. | targ'ibot-tashviqot ishlarining natijalari haqida bilimga ega bo'lishadi.  |
| <b>Ta'lim berish usullari</b>                     | "piramida", "Qanday", "FSMU", "Insert" texnologiyalardan foydalanish, muammoli usul, munozara, suhbat, aqliy hujum, tezkorsos'rov. |
| <b>Ta'lim berish shakllari</b>                    | Jamoaviy, guruhlarda ishslash;   |
| <b>Ta'lim berish vositalari</b>                   | Ma'ruza matni, o'quv materiallari, marker, skotch, qog'oz.   |
| <b>Ta'lim berish sharoiti</b>                     | Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishslash uchun mo'ljallangan auditoriya.   |
| <b>Monitoring va baholash</b>                     | Og'zaki nazorat: savol-javob.  |

### TEXNOLOGIK XARITASI

| Ish<br>jarayonla<br>ri vaqtি               | Faoliyat mazmuni   |   |
|--|--|---|
|  | O'qituvchi   | O'quvchi                                  |
| 1 bosqich.<br><br>Kirish<br>(10<br>daqiqa) | 1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova).  | Tinglaydi,<br>mavzu nomini<br>yozib oladi |
|  | 1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shaklini e'lon qiladi.   | Yozib oladi                               |
| 2 bosqich.<br><br>Asosiy<br>jarayon        | 2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo'yicha ma'ruza qiladi (2-ilova). Ma'ruza bo'yicha "piramida" usulidan foydalangan holda o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Ma'naviyat nima? (3-ilova). | Yozadi,<br>savolga javob<br>beradi.       |

|  |  |   |
|--|--|---|
| (25 daqiqa)  | 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo‘yicha ma’ruza qiladi (4-ilova). Ma’ruza bo‘yicha «Qanday» usulidan foydalangan holda o‘quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Huquqiy targ’ibotning vositalari nima?(5-ilova)  | Yozadi, savolga javob beradi.   |
|  | <p>Mavzuning uchinchi punkti e’lon qilinadi.</p> <p>Mavzuda bayon etilgan masalalarni mustahkamlash «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlarga topshiriqlar beradi (6-ilova). Bu texnika guruhlarda ijodiy ishlashga yordam beradi, qo‘srimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini - qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to‘g‘ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.</p> | Savollarga javob beradilar, erkin bahsmunozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar. |
| 3 bosqich.<br>Yakuniy<br>bosqich<br>(10<br>daqiqa) | 3.1. Mavzu bo‘yicha umumiylar xulosa qilinadi.<br>3.2. O‘quvchilarning baholash mezonlarini e’lon qilinadi<br>3.3. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi<br>(7-ilova)  | Tinglaydilar<br>Yozib oladi<br>Javob yozadi   |
|  | 3.4. Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e’lon qiladi va “Aqliy xujum” usulida jadvalga mustaqil ta’limga tayyorgarlik ko‘rishlarini so‘raydi (8-ilova).  | ”Insert” usulida jadvalni to‘ldiradi.   |

**MAVZU: Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda huquqiy targ'ibotning o'rni.**

***Reja***

1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va ularni amalga oshirish.
2. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda huquqiy targ'ibotning ahamiyati.

**.O'quv mashg'ulotining maqsadi:** O'quvchilarga ma'naviy-ma'rifiy ishlarda huquqiy targ'ibotning o'ziga xos xususiyatlarini falsafiy tahlil etish va uning jamiyatda tutgan o'rnini anglatish.

**O'quv faoliyatining natijasi:** O'quvchilar O'zbekistonda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda huquqiy targ'ibot-tashviqot ishlarning natijalari haqida bilimga ega bo'lishadi.

1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va ularni amalga oshirish.

"Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil etish quyidagi vazifalardan iborat:


- Ma'naviy ma'rifiy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi rolini va uni yoshlar ongiga singdirishning ahamiyatini ochib berish;
- Uzluksiz ta'lim tizimini insonparvarlashtirishning tarbiyaga ta'sirini, eski mafkuradan insonlarning halos bo'lishini tezlashtirish uchun barcha ishlarni tezlashtirish lozimligini ko'rsatish;
- Ma'naviy ma'rifiy islohatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligini ochib berish;

- Ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ma'naviyat, ma'rifat, mafkura tushunchalarining o'zaro bog'liqligini, aloqadorligini, biri ikkinchisini inkor qilmasligini tarbiyaviy jarayonda ulardan umumlashgan holda foydalanish mumkinligini tushuntirish;
- Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning, jarayonlarning mohiyati va asosiy yo'nalishlarini tahlil etish.

3-ilova

**1-o‘quv topshiriq**  
**«piramida» organayzerini to‘ldiring**

**Ma’naviyat nima?**



**Masala bayoni:** Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning muhim talabidir.

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish yo'lida mustaqillik davrida qator tadrijiy islohotlar amalga oshirildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Bular sirasiga “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi hamda “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida”gi Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarning huquqiy ta'limini takomillashtirish kompleks dasturi to'g'risida”gi Qarori kabilarni kiritish mumkin.

Keng ma`noda olganda, targ`ibot tushunchasi faoliyatning alohida turini anglatadiki, ma`lum qarashlar, tasavvurlar va emotsiyal holatlarni vujudga keltirib, ular orqali kishilarning xulq- atvoriga ta`sir etish maqadida bilimlar, g`oyalar, badiiy boyliklar va boshqa xil axborotlarni yetkazish hisoblanadi. Fan, mafkura, san`atdan farqli o`laroq, targ`ibotning asosiy vazifasi yangi ma`naviy boyliklarni yaratishdan iborat bo`lmasdan, balki ularni yoyish, joriy etishdan iboratdir. Fan sohasida, olamni badiiy o`zgartirishda kashf qilingan jamiki narsalar targ`ibotchi-tashviqotchi tomonidan idrok qilinadi, targ`ibot yordamida konkret shaxs bilan bog`liq yangi ma`lumotlar tarqatiladi. Targ`ibotning maqsadi faqat ma`naviy-ma'rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-tarbiyaviy jarayon bilan bog`liq ma`lumotlarni shunchaki kishilar ongiga yetkazishdan iborat bo`lmasdan, balki ularni konkret vaziyatni, auditoriya xususiyatlarini, bu ish kechayotgan sharoitni hisobga olgan holda ijodiy tarzda qayta ishlashni ham nazarda tutadi. Biroq, targ`ibotchining ishi bilan tashviqotchining vazifasi bir biridan farq qiladi.Targ`ibotchining vazifasi ommaga


ko`proq g`oyalarni tarqatish va ommaviylashtirishdan iborat bo`lib, shu qadar ko`p g`oyalalar berishi kerakki, bu g`oyalalar nisbatan unchalik ko`p bo`limgan kishilar tomonidan o`zlashtirilib olinadi. Tashviqotchining zimmasidagi vazifa esa, ma`naviy-ma`rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-tarbiyaviy jarayon bilan bog`liq masalalar haqida gapirganda tinglovchilarning har biriga alohida ta`sit etish. Tinglovchilarning hammasiga, har biriga ma`lum bo`lgan eng muhum misollarni tanlab olishga, bitta g`oyani singdirish uchun bor kuchini sarflashdan va masaladagi qarama-qarshilikni to`la tushuntirish ishini tashviqot qilishdan iboratdir.

5-ilova

## 2-o‘quv topshiriq

**«Qanday» organayzerini to‘ldiring.**

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



### 3-o‘quv topshiriq

#### FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o‘quv jarayonini bahs-munozarali o’tkazishda qo’llaniladi, chunki bu texnologiya o‘quvchilarni o’z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o’z fikrini boshqalarga o’tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o’rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog’ozga o’z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating.

|  |  |
|--|--|
| (F) Fikringizni bayon eting                                |  |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating                    |  |
| (M) Ko‘rsatgan sababingizni<br>isbotlovchi dalil keltiring |  |
| (U) Fikringizni umumlashtiring                             |  |

### 2-guruh

|  |  |
|--|--|
| Savol  | Ma’naviy-ma’rifiy ishlarda<br>huquqning o’rni? |
| (F) Fikringizni bayon eting                                |  |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating                    |  |
| (M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi<br>dalil keltiring |  |
| (U) Fikringizni umumlashtiring                             |  |

**Umumlashtiruvchi savollar:**

- 1. Ma'naviyat va ma'rifat tushunchalari.**
- 2. Ma'naviyatning qanday turlari mavjud?**
- 3. Huquqiy savodxonlik nima?**
- 4. Huquqiy targ'ibot nima?**
- 5. O'zbekistonda shu sohadagi ishlar.**

## XULOSA

Ma'naviyat hamisha, hamma zamonlarda, avvalo, inson kamolotiga, odamlar qalbida ezgu fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qilib kelgan. Eng muhim, jamiyat hayotini yangi ezgu g'oyalar bilan boyitib, xalqning birdamligi va hamjihatligiga asoslangan yangi ma'naviy-ruhiy makonni yaratishda ma'naviyat katta kuch bo'la olgan. Aynan ana shu makon odamlar qalbi va ongida millatparvarlik, vatanparvarlik ruhini mustahkamlab, jamiyatni yuksak taraqqiyot yo'liga boshlaydigan yangi uyg'onish to'lqinlarini yuzaga keltirgan.

Jamiyatdagi ma'naviy yangilanishlar har bir insonni qalban-ruhan ezgu maqsadlar yo'lida birlashtirishga xizmat qiladi. Bu yo'lda milliy g'oya, milliy ma'naviyat har bir xalqning amaliy dasturiga aylanadi. Birlashgan jamiyat yuksak metin qoyadek sobit turadi, birlasholmagan jamiyat qumday sochilib ketadi. Hech kimga sir emaski, hozirgi globallashuv davrida dunyo maydonida hamma sohalarda keskin kurash va raqobat tobora ayovsiz tus olmoqda. Ayrim davlatlar, siyosiy markazlar tomonidan boshqa mamlakatlarni o'z ta'sir doirasiga olish, ozodlik ruhini sindirish, mustaqilligini tizginlash, ayniqsa, yoshlarning ongu tafakkurini egallash orqali taraqqiyot va barqarorlik, milliy birlik va hamjihatlik ildizlariga bolta uruvchi manqurtlarga aylantirmoqda. Bu yo'lda havoyi yorliqlar yopishtirilgan yolg'on va puch da'volar asosida turli usul va vositalarni qo'llashga, juda katta kuch, mablag' va imkoniyatlar safarbar etilyapti. Mana shunday murakkab sharoitda milliy o'zligiga ega bo'lman, ma'naviy hamjihatlikka erishmagan mamlakat moddiy va ma'naviy boyliklarini, eng yomoni, mustaqilligini boy berib qo'yishi hech gap emas. Ma'naviyati yuksak, odobaxloqli, ma'rifatli, madaniyatli kishilargina elim, yurtim deb yashaydi, birov larga himmatmuruvvat ko'rsatishni, yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berish va to'g'ri yo'l ko'rsatishni o'zi uchun baxt deb biladi. Yuksak madaniyat sohibi bo'lgan insonlar boshiga mushkul ish tushgan kishining mushkulini oson qiladi, dardiga malham bo'ladi, hojatini chiqaradi, yetimesirlarni parvarish qiladi. Ma'naviyatli, ma'rifatli kishilarda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usi, oriyat kuchli bo'ladi. Ana shunday fazilatlarga ega bo'lgan kishilar o'z millati, elulusi manfaati sharafini himoya qilishni o'zi uchun shonsharaf deb biladi.

Vataniga xavf tug'ilsa, uning ximoyasi yo'lida moldunyosini, jonusi jahonni ayamaydi, fidoiylik va qahramonlik namunalarini ko'rsatadi. Ma'naviy barkamol bo'lgan odamlar birovlar orqasidan ginaxonlik qilmaydi, gap tashimaydi, fisqu fasad, bo'htonga nisbatan murosasiz bo'ladi, mahalliy chilikka yo'l qo'yimaydi, guruhbozlikka, millat ajratishlarga qarshi astoydil kurashadi, milliy birdamlik, milliy hamkorlik va milliy hamjihatlik, o'zaro do'stlikni qaror toptirish va mustahkamlash yo'lida tinmay harakat qiladi. Vazifasini suiiste'mol qilish, tanishbilishchilik asosida ish yuritish, tamagirlik, poraxo'rlik, odob-axloqimiz va jamiyatimiz qabul qilgan qonun-qoidalarimizni chetlab o'tishga harakat qilish jamiyatimiz taraqqiyoti va davlatimiz mustaqilligi uchun katta g'ov ekanligini anglab yetish va bunday salbiy illat va yaramas odatlarga nisbatan murosasizlik ham yetuk ma'naviyat sohibi bo'lgan insonlarga xos xislat va fazilatdir. Inson hayotida ma'naviyatga ehtiyoj sezilmaydigan sohaning o'zi yo'q. Ma'naviyat insonga milliy o'zligini anglab olishda katta yordam beradi. Ma'naviyat insonning ulug'ligini, martabasini, qudratli aqlidrok, tafakkur, madaniyat va ma'rifat sohibi ekanligini namoyon etadigan va amalda isbotlaydigan jamiki xislatlar yig'indisidir. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyatli etib tarbiyalashda uch tabarruk makonga e'tiborni yanada kuchaytirishimiz zarur: ularning birinchisi – oila, ikkinchisi – mahalla, uchinchisi – ta'lim-tarbiya tizimi. Agar shu uch makonda ma'naviy muhit ko'ngildagidek bo'lsa, hamma ish ko'ngildagidek bo'ladi, agar ular tanazzulga qarab ketsa, butun jamiyat halokatga yuz tutadi. Shu go'zal xislat bilan bиргаликда insonda huquqiy savodxonlik va huquqy madaniyatning bo'lishi nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Jamiyatda nafaqat ma'naviyatni balki, boshqa insonga xos bo'lgan xislatlarni rivojlantirishda ham huquqnning o'rni beqiyosdir.

Bu sohada esa, huquqiy targ'ibot va huquqiy ta'limning o'rni sezilarli darajada bo'lishi shart. Huquqiy ta'lim jarayoni — zarur huquqiy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish bilan bog'lik faoliyat majmui hisoblanadi. Huquqiy tarbiyada esa, targ'ibot va tashviqot ishlarining alohida o'rni bor. O'zbekistoda ham huquqiy soha bo'yicha ko'plab yangiliklar qilindi va bu davom etmoqda. Yaqinda yangi konstitutsiyamiz uchun bo'lib o'tgan referendum ham buni tasdiqlaydi.

Konstitutsiyaga ko'plab o'zgartirishlar kiritildi, jumladan, "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat"- deb o'zgartirilgan 1-modda ham o'zbekistonning huquqiy davlat ekanligini yana bir bor mustahkamladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ma'naviy-ma'rifiy ishlar deganda bir joyga bir guruh odamlarni to'plab olib ularga ma'ruza o'qishni emas, balki qalbdan, chin yurakdan har bir sohada yuz berayotgan o'zgarishlarga, kattayu-kichik jabhalardagi ishlarga teran nazar bilan boqib ularni ijobiy tomonga o'zgarishiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim va zarurdir. Buning uchun biz o'z huquq va erkinliklarimizni, burchlarimizni, oldimizdagи imkoniyatlarni mas'uliyat bilan o'rganib, his qilib anglashimiz lozim. O'zining huquqiy burchlarini yaxshi bilmagan odamning nafaqat buguni balki, kelajagi ham odod bo'lmaydi. Jamiyatda munosib o'rin egallaymiz desak, huquqimizni mukammal o'rganishimiz va hayotimizga tadbiq etishimiz lozim.

## GLOSSARIY

**Ma'naviyat-** (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui) – mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta‘sir o‘tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g‘oyalar majmui.

**Ma'rifat-** shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me‘yorlarni singdirish, ta‘lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish, ularni targ‘ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

**Huquq-** davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umum majburiy ijtimoiy normalar tizimi. U huquqiy munosabatlar va fuqaroning davlat tomonidan mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza etiladigan asosiy huquqlarini o‘z ichiga oladi.

**Targ‘ibot-** xabar yuborish, tarqatish yoki tarqatish uchun vositalar, usullar va uslublar to’plami va maqsad uchun izdoshlarini jalg qilish yoki odamlarning xattiharakatlariga ta’sir qilish. U asosan siyosiy, diniy, ijtimoiy va hatto harbiy maqsadlarda ishlatilgan an'anaviydan noan'anaviygacha bo‘lgan barcha aloqa vositalaridan foydalanadigan mafkuraviy kurashning muhim qurolidir.

**Targ‘ibotchi-** mavzu yoki masala bo'yicha odamlarni ishontirish yoki ishontirish uchun xabarni (doktrinalar, fikrlar, g‘oyalar va boshqalarni) yetkazish uchun javobgar shaxs.

**Mafkura** - (arabcha «mafcura»- nuqtai nazar va e‘tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma‘naviy-axloqiy yuksaklish, ma‘rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta‘minlovchi, ularning maqsad va yo‘nalishlarini aniqlashda yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar tizimi.

**Huquqiy ong-** ijtimoiy ong shakli bo‘lib, jamiyat a’zolarining mavjud huquqiy munosabatlar va huquqni tushunishi, huquq-tartibot haqidagi tasavvurlari. Huquqiy

ong nafaqat amaldagi huquq, balki uning tarixi, shuningdek boshqa jamiyatlardagi voqeliklarni bilishni ham o‘z ichiga oladi.

**Huquqiy madaniyat** - jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo`lishi.

**Pedagogik texnologiya** – ta‘lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta‘lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

**Pedagogik talab** - turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me‘yorlari.

**Rag'batlantirish** - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usuli.

**Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari** – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obektiv va subektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

**Nazorat (ta‘lim jarayonida)**– ta‘lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayoni.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I-ME’YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR**

- 1-O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 2023.
- 2-Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-3160, 28.07.2017.
- 3- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida.//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017-y, 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.
- 4- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020.12.29.
- 5- Sh. Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo’shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida.(O‘zbekiston Reapublikasi qonun hujjatlari to’plami,PQ-4307,3079-son, 2019.05.03).
- 6- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida.//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019 y,06/19/5618/2452-son.
- 7- Sh. Mirziyoyev . O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.(O‘zbekiston Respublikasi ma’lumotlar milliy bazasi, PQ-5040-son, 26.03.2021).
- 8- Vazirlar Mahkamasi Qarori. Respublika ma’naviyat-ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida qaror. 2021-yil 3-iyun.

## **II. RAHBARIY ADABIYOTLAR**

- 1-Huquqiy yetuklik -barkamollikka eltadi” O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.T: Adolat. 2011.
- 2- Sh. Mirziyoyev. Yangi O’zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. T.: 2021.(280-bet).
- 3- Karimov I. A.Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch. –T.:«Ma’naviyat», 2008.
- 4- Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2018.
- 5- Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2017.

## **III. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR**

- 1-Azamat Ziyo.O’zbek davlatchiligi tarixi . –T: 2000;
- 2-Muqimov.Z. O’zbekiston huquqining tarixiy manbalari. Samarqand. 1995;
- 3-A. Saidov, J.Toshqulov . O’zbekiston davlati va huquqi tarixi. –T: 1995;
- 4-Z. Ilhomov, F.Ismatullayev . Ilk o’rta asrlar o’zbek davlatchiligi tarixi.- T: 2011;
- 5-Boboyev. H. O’zbek davlatchiligi tarixi. – T: 2004;
- 6- Z.Ilhomov, S.To’rayev . O’rta asrlar davlatchiligi tarixi. – T: 2011;
- 7-A.Saidov, X.Burhoniddin. Marg’inoniy – buyuk huquqshunos. – T: 1997;
- 8-A.Saidov, A.SH. Jo’zjoni. Sharq va inson huquqlari . -T.: - 1998
- 9- M .Rajabova . Shariatda jinoyat va jazo. – T.: 1996 ;
- 10-Z.Muqimov . Movarounnahr- fiqh maktabi. – Samarqand . 1997;
- 11- S.Ishoqov. Burhoniddin Marg’inoniy va fiqh ilmi. – T .: 2000;
- 12-Boydadayev M. O’zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimi shakllanishi va rivojlanishining huquqiy asoslari. -T ., 1999 ;
- 13- Jo’rayev. N , Fayzullayev. T. Mustaqil O’zbekiston tarixi.- T., 2009;
- 14- Zohidov S. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni sari. -T., 1999;

- 15-Turg'unov M.T, Odilqoriyev H.T, Mamadaliyev Sh.O, Qobilov Sh.R. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi amalda. O'quv qo'llanma. -T ., 2013;
- 16- Sobirova M.A, Jumaniyozov X.S. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. -T .: TDPU , 2018.
- 17- Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi.-T.: Adolat, 2007.-537-b.
- 18- Saburov N., Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi / O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYI, 2011. 74-bet
- 19- Amirov Z. “Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida” // Jamiyat va boshqaruv –2015. №3
- 20- O.R.Topildiyev. Z.U.Haydarov.Madaniyat muassasalarida targ'ibot-tashviqot ishlari metodikasi. O'quv uslubiy qo'llanma. N.: 2021.
- 21- E.O.G'apparov, B.A.Tillayev, A.X.Sultonov. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi. O'quv uslubiy qo'llanma. N.: 2022.

#### **IV. INTERNET SAYTLARI**

- 1-www. tdpu. uz
- 2-www. ziyonet. uz
- 3-www. edu. uz
- 4-www. ma'naviyat. uz
- 5-www.bilim.uz.
- 6-www.ares.uz



